

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

*Qo‘lyozma huquqida*

*UDK:821.512.161*

*KBK: 83.3-5(5turk)*

*B-83*

**BOLTABOYEVA HULKAROY HAMIDULLA QIZI**

**MEHMET AKIF ERSO‘YNING “SAFOHAT”  
ASARIDA POETIKA**

5A 120101 – Adabiyotshunoslik

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan  
dissertatsiya

Ilmiy rahbar:

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent **A.Alimbekov**

Toshkent – 2019

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	3
<b>I bob. Poetika masalalari va uning turk adabiyotshunosligida ishlanishi</b>	
1. “Poetika” atamasining nazariy qamrovi va adabiyotshunoslikdagi vazifalari.....	9
2. Turk adabiyotshunosligida poetika masalalarining o‘rganilishi .....	16
<b>I bob yuzasidan qisqacha xulosalar</b> .....	24
<b>II bob. “Safihat” asarining g‘oyaviy mundarijasi va strukturasi</b>	
1. “Safihat” asarining mavzusi, g‘oyasi va asosiy muammosi.....	26
2. “Safihat” asarining sujet va kompozitsiyon tarkibi.....,,.....	40
<b>II bob yuzasidan qisqacha xulosalar</b> .....	54
<b>III bob. “Safihat” asarining badiiy xususiyatlari</b>	
1. Asarning janr, vazn va qofiya tizimi.....	56
2. Asarda qo‘llanilgan badiiy san’atlar ko‘lami.....	62
<b>III bob yuzasidan qisqacha xulosalar</b> .....	70
<b>XULOSA</b> .....	72
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati</b> .....	76

## KIRISH

### **Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.**

Dunyoda yuz berayotgan global o'zgarishlar turli davlat va millatlarning tobora jipslashuvi, hamkorlikda ish ko'rish va harakat etishni taqozo etayotganligi ma'lum. Tabiiyki, bu holat ilm va madaniyat sohasida yanada kuchliroq namoyon bo'lmoqda. Turkiy tilli qator davlatlarning mustaqil taraqqiyot yo'lini tutganligi ilm-fan borasidagi integratsiyaning kuchayishi va hamkorlikning kengayishiga olib keldi. Jumladan, Respublikamizda so'nggi o'n yilda turkologik tadqiqotlar salmog'i keskin oshdi, ilmiy izlanishlar ko'lami kengaydi<sup>1</sup>.

**“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi”da aytilganidek,** “Xalqaro munosabatlarda ochiq va amaliy, faol tashqi siyosat olib borilayotgani tufayli ishonchli hamkor sifatida mamlakatimizning xalqaro obro‘si tobora ortib bormoqda... Bu borada O‘zbekiston mintaqadagi qo‘shni davlatlar bilan, shuningdek, Turkiya, Hindiston, Pokiston, Eron bilan amaliy va o‘zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirishni muhim vazifa, deb biladi”<sup>2</sup>.

O‘zbekistonda mustaqillik sharofati bilan turli xalqlar tarixini, adabiyoti masalalarini o‘rganishga katta ilmiy say‘i-harakatlar boshlandi. Shu jumladan, turk adabiyotiga qiziqish ham kuchaydi. Turk modern she‘riyati, nasri va dramaturgiyasi xususida talaygina ilmiy maqolalar, qo‘llanmalar va risolalar yozildi<sup>3</sup>. Shunday bo‘lsa-da, bu sohada hali o‘z yechimini kutayotgan masalalar oz emas.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bu taraqqiyot yo‘lida yoshlarni yetakchi kuch sifatida baholab shunday ta’kidlaydi: “Yoshlarimiz haqli ravishda Vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo‘lgan, bugungi va ertangi kunimizning hal etuvchi kuchiga aylanib borayotgani

---

<sup>1</sup> Туркология масалалари. Илмий мақолалар тўплами, № 1. Т.: 2006. Б. 38-40.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so‘zi. 29.12.2018.

<sup>3</sup> Абдуллаев А. Замонавий турк шеърияти. Т.: 2006, Б –14

barchamizga gʻurur va iftixor bagʻishlaydi”<sup>4</sup>. Mamlakatimizda Sharq tillarining oʻqitilish tarixi uzoq yillarga borib taqaladi. Yurtimiz mustaqillikka erishgandan soʻng, sharq tillariga boʻlgan eʼtibor yanada ortdi.

Prezidentim Shavkat Mirziyoyev taʼkidlaganidek, “biz taʼlim va tarbiya tizimining barcha boʻgʻinlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni oʻzimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz”<sup>5</sup>.

Shu oʻrinda mamlakatimizda taʼlim-tarbiya bilan birgalikda xorijiy tillarni oʻrganishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Bu biz yoshlarga berilayotgan eng katta eʼtibordir. Shu bois, biz yoshlar ham manashu imkoniyatlardan foyidalanib, xorijiy tillarni puhta oʻrganib, oʻzimiz oʻrganayotgan sharq tilini mukammal egallab, ularni yurtimiz madaniyati, uning oʻlmas anʼana, qadriyatlarini bilan tanishib, yurtimizning jahon hamjamiyatida munosib oʻrin egalashiga oʻz hissamizni qoʻshish xalqimiz oldidagi burchlarimizdan biridir.

Haqiqatan ham, jahon adabiyoti tarixiga nazar tashlar ekanmiz, u hamisha kishilik jamiyati hayotidagi katta oʻzgarish va evrilishlarning aks sadosi boʻlib kelganini koʻramiz. Har bir xalq hayotida muhim ahamiyatga molik boʻlgan tarixiy voqealar, qoʻzgʻolonlar, inqiloblar sodir boʻladi va ularning sodir boʻlishiga sabab boʻlgan mashhur shaxslar yashab oʻtadi. Turk xalqi ham oʻz tarixiy taraqqiyoti davomida bu jarayonlardan xoli boʻlmadi.

Har bir milliy adabiyotning oʻz maʼnaviy-moddiy asoslari, uni yuksaklikka olib chiqqan ulkan soʻz sanʼatkorlari boʻlgani kabi Mehmet Akif Ersoy ham XX asr turk adabiyotining eng muhtasham adiblaridan biri boʻlishi bilan bir qatorda, “Safihat” nomli yirik qomusiy asari bilan oʻz milliy adabiyotinigina emas, balki barcha turkiy xalqlar adabiyotlarini ham oldinga siljishiga sabab boʻldi. Ushbu asarning oʻrganilishi bevosita XX asr boshlari adabiy-madaniy hayotining hamda turk adabiyotining har tomonlama jiddiy tadqiq etilishiga yordam beradi. Qolaversa, Mehmet Akif Ersoy ijodi turk adabiyotigagina emas, balki butun Sharq

---

<sup>4</sup> Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Т.: Ўзбекистон, 2016. — Б.13.

<sup>5</sup> Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini taʼminlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Т.: Oʻzbekiston, 2017. – B.20

adabiyotlariga o'z ta'sirini o'tkazgan. Bu jihatdan Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon asarlarini eslash kifoyadir. Mehmet Akifning "Safohat" asari bilan bevosita o'zbek adiblari Fitrat va Cho'lpon ijodi ham ma'lum ma'noda bog'langan bo'lib, Fitratning "Munozara", "Hind sayyohi bayonoti", Cho'lponning "Buzilgan o'lkaga", "Kecha va kunduz" kabi asarlarining yozilishiga o'z ta'sirini o'tkazgan.

Mavzuning dolzarbligi yana shunda ko'rinadiki, o'z davrida barcha turkiy adabiyotlarga ta'sir etgan ushbu asarni tadqiq etish o'zbek adabiyotshunosligi uchun ham dolzarb hisoblanadi.

**Tadqiqot ob'yekti va predmeti.** Mehmet Akif Ersoyning "Safohat" asarining Mehr Erdo'g'ru tomonidan nashrga tayyorlangan tanqidiy matni (1987) va ushbu asarning ayrim ommaviy nashrlarini tadqiqot obyekti qilib, asarning poetik xususiyatlari uning predmeti sifatida belgilandi.

**Tadqiqot maqsadi va vazifalari.** Ishdan ko'zlangan maqsad Mehmet Akif Ersoy "Safahot" asarining poetik xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda uning oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan:

- Poetikaning nazariy qamrovi va badiiy adabiyotdagi vazifalarini o'rganish;
- Turk adabiyotshunosligida poetika masalalarini o'rganilganlik darajasini aniqlash;
- "Safohat" asarining mavzusi, g'oyasi va unda aks etgan muammolarni belgilash;
- "Safohat" asarining sujeti, kompozitsiyasion xususiyatlarini tahlil qilish;
- "Safohat" asarining qofiya tizimi va u yozilgan hijo hamda aruz vazniga xos jihatlarni tahlilga tortish;
- "Safohat" asarining tarkibidagi badiiy xususiyatlarning muallif mahoratini o'rganishdagi ahamiyatini ko'rsatishdan iborat.

**Tadqiqot ishidagi ilmiy yangiligi.** Barchamizga ma'lumki, Mehmet Akif Ersoy "Safahot" asarining Turk adabiyotidagi o'rnini va turkiy adabiyotlarga ko'rsatgan ta'sirini aniqlash uchun asarning mazmuni va badiiy shakl xususiyatlari,

jumladan, obrazlar tizimi, sujet va kompozitsiyasi hamda badiiy xususiyatlari hozirgi adabiyotshunoslik talablaridan kelib chiqib o'rganiladi.

**Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari.** Ushbu dissertatsiya orqali Mehmet Akif Ersoyning "Safohat" asarining yaratilishi, unda aks etgan ma'naviy hayot masalalari, XX asr boshlaridagi milliy istiqlol uchun kurash kabi muammolar o'rganiladi. Shuningdek, tadqiqotda asarning obrazlar tizimi, sujeti, kompozitsiyasi va badiiy xususiyatlari, bir so'z bilan aytganda, asar poetikasi, uning janr xususiyatlari tadqiq etilgan. "Safohat" 7 qismdan iborat asar bo'lib, u qariyb 21 yil davomida yozilgan. Shunday ekan, uni yagona umumiy sujetli asar deb bo'lmaydi. Muallif har bir sujet liniyasida XX asr boshlari turk dunyosining muayyan muammolarini qalamga olgan.

**Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi.** Mehmet Akif Ersoy ijodi turk olimlari tomonidan atroflicha o'rganilgan. Ayniqsa, shoirning hayoti va ijodi, asarlarining yozilish tarixi, "Safohat" ("Sahifalar") asarining xususiyatlari hamda adibning boshqa asarlari xususida bir necha monografiya, tadqiqot va maqolalar yaratilgan. Ushbu asarning ommaviy, ilmiy va tanqidiy matnlari bir necha marta chop etilgan<sup>6</sup>. Bulardan tashqari, ushbu mavzuga bag'ishlangan quyidagi tadqiqotlarni keltirish mumkin. Sulaymon Nazifning "Mehmet Akif" nomli kitobining V bobi "Safohat"ning yozilish tarixiga bag'ishlangan<sup>7</sup> bo'lib, unda muallif shoirning hayoti, serqirra ijodiy faoliyati, asarlaridagi ma'naviy va ma'rifiy masalalarga e'tibor qaratgan. Asar erkin publisistik uslubda yozilgan. Mihát Jemal Kuntayning "Mehmet Akif hayoti, sajiyasi, san'ati" kitobida<sup>8</sup> yozuvchining ijodiy mahorati, she'rlarining badiiy xususiyatlari, "Safohat" asaridagi asosiy qahramonlarning tasnifini berib o'tgan. Emin Aman o'g'lining "Mehmet Akifning Milliy kurashi tarixi va adabiy faoliyati haqida bir tadqiqot" maqolasini ham

---

<sup>6</sup> Ersoy M.Á. Safahat, İstanbul: İnkılap Kitabevi, 1987. — S. 600; Ersoy M. Á. Safahat. Ankara, Akçağ Yayınevi, 2008, — 544 s.; Ersoy M. Á. Safahat. Ankara, Mehmet Ákif Ersoy Ünivevrsitesi Yayini, 2013, 560 s.; Mehmet Akif Ersoy. Sahifalar. Turkchadan Miraziz A'zam tarjiması. Toshkant: Alisher Navoyi nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashiryoti, 2012. — B. 180.

<sup>7</sup> Süleyman Nazif. Mehmet Ákif. İstanbul: İz Yayın evi, 1991. — S.336.

<sup>8</sup> Mihát Jemal Kuntay. M. Ákif hayati, saciyesi, sanati. İstanbul: Tımaş yayın evi, 2009. — S. 469.

ko'rsatish mumkin<sup>9</sup>. Mehmet Akifning Milliy mujodala (1918-1923) davridagi asarlari, ularning mavzulari, siyosiy faoliyati va "Safohat"ning yozilgan bo'limlari tahlil qilingan ushbu maqolada asarning yangi nashri va uning xususiyatlari ham ko'rsatilgan. Mustafo Akso'yning "Safohat"dagi ba'zi ijtimoiy qatlamlarning masalalari" asarida<sup>10</sup> esa ushbu sertarmoq asarda ko'tarilgan ijtimoiy mazmun va uning ahamiyati kabi jihatlarga e'tibor qaratilgan.

Bundan tashqari, Mehmet Akif asarining dastlabki uch bobi o'zbek tiliga "Sahifalar" (birinchi kitob) sarlavhasi bilan o'zbek shoiri Miraziz A'zam tomonidan o'girilgan bo'lib, uning "Mehmet Akif Erso'yning Abdurauf Fitrat ijodiga ta'siri to'g'risida" nomli so'z boshisida turk va o'zbek adiblari ijodining ayrim o'xshash sahifalari haqida fikr yuritilgan<sup>11</sup>.

**Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi.** Tadqiqotda, asosan, tarixiy-qiyosiy metod qo'llanilgan bo'lib, ushbu metod Mehmet Akif Erso'y ijodini muayyan xronologik tartibda o'rganish imkoniyatini beradi, uning asari tahlilida ham davriy ketma-ketlik saqlanib qolgani, asar qariyb 1906-1920-yillar voqealarini o'zida aks ettirgani uchun uni tarixiy-qiyosiy metod orqali o'rganish ushbu tadqiqot oldiga qo'ygan vazifalarni bajarishga imkon beradi. Shuningdek, "Safohat" asarining ichki strukturasi, obrazlar tizimi va sujet-u kompozitsiyasini o'rganishda struktural metod imkoniyatlaridan ham foydalanildi.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.** Mazkur magistrlik dissertatsiyasi "Filologiya va tillarni o'qitish (turk tili)" ta'lim yo'nlishida tahsil olayotgan talabalar uchun "Til o'rganilayotgan mamlakat adabiyoti" fanidan darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda manba bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, mazkur ish "Adabiyotshunoslik (turk adabiyoti)", "Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik" magistratura mutaxassisliklari bo'yicha ta'lim

---

<sup>9</sup> *Amanoğlu E.* Mehmet Âkif'in Milli Mücadele Dönemindeki Edebi Faaliyetleri Üzerine Bir inceleme / Mehmet Âkif Ersoy Sempozyumu Bildiriler Kitabı. Mehmet Âkif Ersoy Üniversitesi, 2008. S.170 – 175.

<sup>10</sup> Bu haqda qarang: *Emin Aman oğlu.* M. Âkifnin Milli Mücadele dönemlerindeki edebiyat faaliyetleri üzerine Bir inceleme. M. Âkif Ersoy Sempozyumu Bildiri özetleri. M. Âkif Üniversitesi, 2008. — S.181-186.

<sup>11</sup> *A'zam M.* Mehmet Akif Ersoyning o'zbek jaded yozuvchisi Fitratga ta'siri to'g'risida / *Mehmet Akif Ersoy.* Sahifalar. Turkchadan Miraziz A'zam tarjiması. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashiryoti, 2012. — B. 7-18.

olayotgan hamda ushbu yo‘nalishda ilmiy ish olib borayotgan magistrantlarga amaliy ko‘rsatma vazifasini o‘tashi mumkin.

**Ish tuzilmasining tavsifi.** Mazkur dissertatsiya kirish, olti faslni o‘z ichiga olgan uch bob, har bir bobning qisqa xulosalari, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

## **I BOB. POETIKA MASALALARI VA UNING TURK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA ISHLANISHI**

### **1. “Poetika” atamasining nazariy qamrovi va adabiyotshunoslikdagi vazifalari**

Jahon adabiyotshunosligida poetikaning ilm sifatida shakllanishida Aristotelning “Poetika” asari muhim o‘rin tutadi. Garchi ushbu asarda “poetika” atamasining bugungi ma’nolar qamrovi to‘la belgilab berilmagan bo‘lsa ham, “poetika” badiiylik ilmi sifatida ilk bor mana shu asarda sharhlab berilgan. Aristotel bu tushunchani shoir (poet) – she’riyat (poeziya) – badiiyat ilmi (poetika) tarzida tushuntirib yozadi: “Shoirning vazifasi haqiqatan sodir bo‘lgan voqea haqida emas, balki (uning tasavvurida) sodir bo‘lish ehtimoli yoki zarurati mumkin bo‘lganlar haqida gapirishdir. Ayni tarixchi va shoir shu o‘rinda (bir biridan) farqlanadiki, ulardan biri badiiy shakllar bilan ish ko‘rsa, ikkinchisi voqealar bilan ish ko‘radi”<sup>12</sup>. Aristotel talqinidan ko‘rinadiki, shoir (ijodkor) badiiy shakl va to‘qima obrazlar orqali ish ko‘radi, tarixchi esa voqealar ketma-ketligini bayon qilish yo‘lidan boradi. Demak, shoir ijodi mahsuli bo‘lgan badiiy asarlarning poetik xususiyatlari o‘rganilar ekan, uning san’at asari sifatida badiiyligini ta’minlagan jihatlarni tahlil qilish orqali asar poetikasini tadqiq qilishga erishish mumkin.

H.Homidiy, Sh.Abdullayeva, S.Ibrohimova tomonidan tuzilgan “Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati”da shunday anglatma berilgan: “Poetika (gr. poietike so‘zidan) – badiiy adabiyot haqidagi ilm, adabiyot nazariyasi, adabiyot qoidalari. Poetika adabiyotshunoslikning tarkibiy qismidir. Poetika ba’zan biror yozuvchi uslubining o‘ziga xos xususiyatlarini, badiiy vositalar yig‘indisini anglatadi. Poetika she’riyat, she’r tuzilishining xususiyatlari ma’nosida ham

---

<sup>12</sup> Арасту Ҳақим. Поэтика. Ахлоқи кабир. Рус тилидан М.Махмуд тарж. Т.: Янги аср авлоди, 2004. — Б.20.

qo‘llaniladi”<sup>13</sup>. Ushbu tushuntirish “poetika” so‘zining umumiy ma‘nolarini anglatib, uning qo‘llanilish doirasini toraytirib qo‘yishi mumkin. Shuning uchun ham so‘nggi davrda e‘lon qilingan lug‘at va nazariy qo‘llanmalarga e‘tibor qaratish lozim.

“Poetika” deb anglatadi, rus tilida yozilgan “Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati”ning muallifi S.P.Belokurova, – antik davrda (termin Aristotel tomonidan “Poetik san‘at” asari orqali kiritilgan), umuman, badiiy adabiyot haqidagi ta‘limot; keyinroq esa – asar badiiy shaklining ifodasi... Hozirgi adabiyotshunoslikda poetika – adabiy asar qurilishi va estetik vositalar tizimi haqidagi fan bo‘lib, unda yuqoridagi vositalarning tarixiy o‘zgarish qonuniyatlari, muallif ijodiy niyatining badiiy umumlashtirish usullari qo‘llaniladi. Poetika umumiy (yoki nazariy – matnning tovush, so‘z va obrazli qurilishi) va xususiy (aniq bir adabiy asarni o‘rganishga qaratilgan) hamda tarixiy (turli xalqlarning adabiyotlarida badiiy usullarning evolyutsiyasini o‘rganuvchi) kabi turlarga bo‘linadi”<sup>14</sup>. Ushbu lug‘atda berilgan tushuntirish anchagina keng bo‘lib, “poetika” terminining juda ko‘p xususiyatlarini o‘zida jamlaydi. Poetika – badiiy matnning barcha nazariy tomonlarini: uning tovush jihati, so‘z va jummalarning tuzilishi, obrazlar ko‘lami; tarixiy jihatdan janrlar takomili, badiiy usullarning qo‘llanilishi kabi tomonlarni ham qamrab olishi mumkinligi ushbu ta‘rifdan anglashiladi.

Rus tilida yaratilgan ensiklopedik lug‘at<sup>15</sup> asosida tuzilgan “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da shunday ta‘rif berilgan: “Poetika (yun. poietike techne – ijod san‘ati) – keng ma‘noda adabiyot nazariyasi, tor va hozirda ko‘proq qo‘llanilayotgan ma‘noda adabiyot nazariyasining tarkibiy qismi, adabiy asar haqidagi ta‘limot. Poetikani umuman adabiyot, so‘z san‘ati haqidagi fan – adabiyot nazariyasi ma‘nosida tushunish antik davrlardan an‘anaga aylangan. Poetikani tor ma‘noda – adabiyot nazariyasining tarkibiy qismi sifatida tushunish XX asrning ilk

---

<sup>13</sup> Хомидий Х., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати. Т.: Ўқитувчи, 1970. — Б. 169.

<sup>14</sup> Белокурова С.П. Словарь литературоведческих терминов. Санкт-Петербург: Паритет, 2006. — С. 132.

<sup>15</sup> Литературный энциклопедический словарь / Под редакцией В.Кожевникова и М.Алексеева. М.: Художественная литература, 1987. — С.1120

choragidan boshlab qaror topgan bo‘lib, bunda rus adabiyotshunosligidagi formal maktab vakillarining xizmati katta. Ular adabiy asarning shakliy tomonlariga, uning qurilishi masalalariga asosiy e‘tiborni qaratdilar”<sup>16</sup>.

Demak, “poetika” istilohini biz tushungan va tadqiqotda qo‘llashimiz mumkin bo‘lgan ma’noda XX asr boshlari rus formal maktabi vakillari (V.Shklovskiy, B.Eyxenbaum, Y.Tinyanov)ning qarashlariga asoslanishga ham to‘g‘ri keladi. Ushbu maktab vakili bo‘lishiga qaramay, ularga tanqidiy yondashib, jiddiy tarzda tuzatishlar kiritgan B.V.Tomashevskiy: “Poetika o‘z vazifasini adabiy asarning qurilish xususiyatlarini o‘rganishda ko‘radi. Poetikaning o‘rganilish ob‘yekti – badiiy adabiyot. O‘rganish usuli esa – hodisa va talqinlarni tasniflash va tavsiflashdan iborat” deb yozadi<sup>17</sup>.

Ko‘rinadiki, XX asr boshlariga kelib “poetika” tushunchasining nazariy qamrovi ancha kengaygan. Bu vaqtga qadar rus adabiyotshunosligida mavjud bo‘lgan A.N.Veselovskiyning “Tarixiy poetika”, A.A.Potebnyaning “Nazariy poetika” kabi asarlari muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Ularni tahlil qilish orqali V.M.Jirmunskiy bu haqda maxsus tadqiqot yaratgan va o‘z asarini “Poetikaning vazifalari” deb atagan. Tadqiqot muallifi o‘zigacha mavjud bo‘lgan qarashlarni umumlashtirish orqali “Poetika – bu “uslubni yaratish vositasi va badiiy asar ichki qurilishini o‘rganishni o‘z zimmasiga oladi... Shunday ekan, poetika adabiyotni san’at sifatida o‘rganuvchi fan, poeziya haqidagi ilmdir” degan xulosaga keladi.<sup>18</sup> Bunday xulosaga kelishda muallif “Poetika adabiyotni san’at sifatida o‘rganuvchi fandir. Agar azaldan mavjud bo‘lgan bunday so‘z qo‘llanilishini qabul qilsak, shuni dadil tasdiqlab aytish mumkinki, keyingi yillarda adabiyot haqidagi fan poetika belgisi ostida rivojlanmoqda” deyish bilan uning yaqin asoslarini ko‘rsatib beradi. Muallif yuqorida tilga olingan asarlarni tahlil qilib, “Tarixiy poetika masalalarini Rossiyada akad. A.N.Veselovskiy ilgari surgan bo‘lib, adabiyot tarixida garchi tugallanmagan bo‘lsa-da, poetik janrlar asosida ulkan fikr qoldirgan... Nazariy poetika muammolari A.A.Potebnya ishlarida, jumladan,

<sup>16</sup> Quronov D., Matajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. T.: Akademyashr, 2010. – B. 212

<sup>17</sup> Томашевский Б. Стилистика и стихосложение. Курс лекций. Л., 1959. – С.484

<sup>18</sup> Жирмунский В. М. Задачи поэтики / Теория литературы. Поэтика. Стилистика. Л., 1977. – С. 87.

“Adabiyot nazariyasiga oid yozuvlar” kitobi yoki uning butun tizimini yaxlit olganda, uning asarlarida aks etgan metodga – poetikani til haqidagi umumiy qonuniyatlarni o‘rganuvchi tilshunoslikka yaqinlashuvi – mohiyatan e’tiroz uyg‘otsa-da, favqulodda samarali bo‘lgani uchun keng e’tirof etilgan”<sup>19</sup>.

V.M.Jirmunskiy tadqiqoti yozilganiga yuz yildan ortiqroq vaqt o‘tgan bo‘lsa ham, hozirga qadar o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Bugungi kunda u tahlil orqali ko‘rsatib bergan tarixiy poetika (A.N.Veselovskiy), nazariy poetika (A.A.Potebnaya) masalalariga tayangan rus adabiyotshunoslari tomonidan chop etilgan “Adabiyot nazariyasi” kitobini mana shu nomlar bilan ikki jildda nashr qilingani bu qarashlar hali eskirmaganini ko‘rsatadi.<sup>20</sup>

Bundan tashqari, bugungi kunda poetika atamasi bilan bog‘liq holda yana quyidagi ma’nolarda ishlatilayotganini ko‘ramiz: antik poetika (S.S.Averinsev), dinamik poetika (Z.S.Paperniy), struktural poetika (R.Bart, Yu.Lotman) kabi yo‘nalishlar ham mavjud. Shu bilan birga, ayrim badiiy komponentlarga nisbatan: sujet poetikasi (A.N.Veselovskiy), mif poetikasi (E.M.Meletinskiy), bayon (povestvovanie) poetikasi (N.K.Gey), kompozitsiya poetikasi (B.A.Uspenskiy) kabi ma’nolarda ham qo‘llanilgani adabiyot mutaxassislariga ma’lum.

Shuni ham esda tutish lozimki, “poetika” atamasi biror ijodkorga nisbatan ham qo‘llanilmoqda. Masalan, Navoiy poetikasi (Y.Ishoqov), Pushkin poetikasi (S.G.Bocharov), Dostoyevskiy poetikasi (M.Baxtin) kabi ma’nolarda ishlatilganini ham kuzatamiz.

Sharq mumtoz adabiyotshunosligida “poetika” istilohi XX asr boshlaridan boshlab qo‘llanilgan bo‘lsa-da, unga qadar Islom dini orqali boshqa xalqlarga yetib borgan mumtoz arab poetikasi anglatgan masalalar yuzasidan mohiyatan G‘arb atamashunosligidagi istilohiy ma’nolarni o‘zida aks ettirgan. Faqatgina “poetika” so‘zi o‘rniga “ilmi adab” (filologik ilmlar) qo‘llanilgan bo‘lib, u o‘zining tarkibiga ko‘ra ham badiiy asarning san’at asari sifatidagi mohiyatini, ham tilshunoslikning ob’yekti hisoblangan badiiy matnning ifodaviy jihatlarini o‘zida jamlagan.

---

<sup>19</sup> Жирмунский В. М. Задачи поэтики / Теория литературы. Поэтика. Стилистика. Л., 1977. – С. 89.

<sup>20</sup> Теория литературы. В двух томах. Под редакцией Н.Д.Тамарченко. М., 2004. Т.1,С.296, Т.2. С.324

Mumtoz adabiyotshunoslikda soʻzning badiiylilik xususiyati yoki asarning badiiylilik tabiatini oʻrganish uchun maxsus ilmlar yigʻindisi “ilmi adab” istilohi bilan ishlatiladi. Uning tarkibini adabiyotshunos olim B.Valixoʻjaev “Oʻzbek adabiyotshunosligi tarixi” kitobida quyidagicha koʻrsatgan: Lugʻat (leksikologiya maʼnosida), sarv (morfologiya), nahv (sintaksis), ilmi kalom, ilmi badeʼ (badiiy sanʼatlar), ilmi aruz, ilmi qofiya, adabiy navlar maʼnolarini ifodalaydigan sohalardan iborat<sup>21</sup>. Ushbi fikrdan maʼlun boʻlishicha, badiiy asarning, ayniqsa, sheriyoʻl bilan yozilgan mumtoz asarlarni tahlil qilish uchun ularning vazn xususiyatlari, qofiyalar tizimi, asarda qoʻllanilgan sheʼriy sanʼatlarni tahlil qilish natijasida uning poetik xususiyatlari oʻrganilgan ekan.

“Muallimi soniy” Abu Nasr Forobiy “Kitobu-sh-sheʼr” asarida Aristotelning “Poetika” kitobini sharhlab bergan va badiiy soʻz deyilganda, adabiyotning qaysi jihatlariga eʼtibor berish zaruratini koʻrsatgan. Badiiy asarda hayotiy haqiqat va toʻqima munosabati, asarning badiiyligini taʼminlovchi ritm, janr, badiiy vositalar kabi holatlarga eʼtibor bergan. Uning koʻrsatishicha, tabiatda odam bor, badiiyatda esa odam aksi bor<sup>22</sup>. Badiiy asarni oʻrganuvchi tadqiqotchilar asardagi mana shu odam aksini, yani obrazlarni va ularni yaratish yoʻllarini oʻrganish lozimligini bilib olamiz. Bular esa har qanday asarning shaklida va mazmunida aks etishi mumkin ekanki, biz ham mazmun va shaklning oʻzaro munosabatini oʻrganish natijasida uning poetika tomonini oʻrganishga yoʻl topa olamiz.

Shakl va mazmun munosabati dastlab yunon allomalari Platon va Aristotel (miloddan avvalgi IV asr) asarlarida aks etgan boʻlsa, bu asarlarni arab tiliga tarjima qilib, unga sharhlar yozgan olim Abu Nasr Forobiy badiiy shaklning ayrim ifoda usullari, xususan, janrlarini izohlab koʻrsatgan. Demak, Forobiy nafaqat arab tilida asarlar yozgan Sharq allomasi, balki Sharq va Gʻarb adabiyotini bogʻlab bergan adabiyotshunos ham ekanki, uning taʼlimotini oʻrganish orqali poetik janrlar tabiatini oʻrganishga kirishish mumkin.

---

<sup>21</sup> *Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. Т., 1993. — В. 17.*

<sup>22</sup> *Фаробий А. Фозил одамлар шаҳри. Т., 1993. — Б. 119.*

Yuqorida biz ko‘rib chiqqan adabiy manbalarni o‘rganish natijasida shunday umumlashmalarga kelamiz: Poetika – adabiyotni san’at sifatida o‘rganuvchi fandır. Badiiy so‘z tabiatini o‘rganganda dastlab uning zohiriy va botiniy ma’nosini, ya’ni surat va ma’no munosabatini tahlil qilishga to‘g‘ri keladi. Har bir ma’no muayyan shaklga ega, har bir shakl esa ma’lum ma’noni ifoda qiladi, ular o‘zaro birlik holidagina o‘quvchiga yetib borishi mumkin. Ma’noning o‘z jihatlari bo‘lgani kabi shaklning ham o‘z unsurlari mavjud bo‘ladi. Ana shu munosabatlarni o‘rganish natijasida badiiy asarning mazmuniga tegishli mavzu, g‘oya va muammo kabilarni, shakl elementlari jihatidan esa asarning obrazlar tizimi, sujet va kompozitsiyasini o‘rganish lozim bo‘ladi. Agar asar she’riy yo‘l bilan yozilgan bo‘lsa, uning vazn va qofiya hamda badiiy san’atlarini tahlil qilish kerak bo‘ladi<sup>23</sup>.

Mumtoz adabiyotshunoslikda shakl va mazmun munosabati qadimdan mavjud bo‘lgan bo‘lsa ham, asosan, islomdan keyingi adabiyotshunoslikda muayyan ilmiy tizimga kirgan. Chunki Qur’oni karimda shakl va mazmun munosabati haqida muayyan qarashlar bor. Undagi talqinga ko‘ra, shakl va mazmun juzv va kull (lug‘aviy ma’nosi: butun va bo‘lak) munosabati orqali anglashiladi. Juzv mutlaq borliq, iloh deb berilsa, kull uning aks etishi, tajallisi sifatida tushuntiriladi. Demak, shakl va mazmun Qur’oniy asosga ko‘ra mutlaq mohiyat (iloh) va uning yaralish vositalari, akslanuvchi manbalari tarzida talqin qilinadi.

IX-XV asrlar adabiyotshunosligida surat va ma’ni deyilganda, badiiy asardan tushunilayotgan ma’no, mazmun, shakl deyilganda esa uning lafziy jihati – so‘z orqali ifodasi aks etgan. Shu kabi Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy asarlarida ham shakl va mazmun birligi ko‘rsatilgan. Jomiyning talqinicha, lafz ma’noning zohiridir, ma’nini so‘z va tilsiz ifoda qilib bo‘lmaydi. Chuqur ma’no berish uchun esa ko‘rkli lafz kerak. Ma’no lafz bilan go‘zal bo‘lgani kabi lafz ham ma’no go‘zalligi bilan ko‘rkli bo‘ladi<sup>24</sup>.

---

<sup>23</sup> Шарқ мумтоз поэтикаси. Матн ва талқинлар. Тузувчи Ҳ.Болтабоев. Т., 2006. — Б. 106.

<sup>24</sup> Жомий А. Силсилату-л-заҳаб / Шарқ мумтоз поэтикаси. Матн ва талқинлар. Тузувчи Ҳ.Болтабоев. Т., 2006. — Б. 112.

Alisher Navoiy “Hayrat–ul–abror” asarida surat va ma’ni haqida fikr yuritib, “Bir necha so‘z ul ma’nidakim, so‘zdagi ma’ni jome’durur. So‘z qolibi onsiz qolube bo‘lmaz, kim jonsiz va ani topmoq ishini kishi bilmas, balki ani topqon kishi topilmas”, deb yozadi<sup>25</sup>. Demak, Navoiy talqinida ma’no – so‘z qolipining jonidir. Jonni qolipdan (jasaddan) ajratib bo‘lmaydi. Ma’ni va surat ajralmas bir mohiyatdir. Uni she’rda ko‘rmoqchi bo‘lganlar ularni bir butunlikda ko‘rishlari, vazn va qofiya kabi zohiriy jihatlarni she’rning ma’nosidan ajratmasliklari kerak.

Mumtoz adabiyotshunoslikda ma’no shaklning javhari, yadrosi bo‘lib keladi. Shaki esa ma’noning ifoda yo‘sini tarzida qabul qilinadi. Bu fikrni izchil davom ettirgan olim Shayx Ahmad Taroziyning “Funun–ul–balog‘a” asari adabiyotshunoslikning besh muhim xususiyatiga bag‘ishlangan. Ular:

1. Adabiy navlar va she’riy shakllar.
2. Aruz ilmi.
3. Badiiy san’atlar.
4. Qofiya ilmi.
5. Muammo ilmiga bag‘ishlangan (shu so‘nggi beshinchi qismi bizgacha yetib kelmagan).

Sharq mumtoz adabiyotshunosligida poetika masalalari o‘rganilganda badiiy asarning janr xususiyatlarini ham o‘rganish lozimligi qayd etiladiki, bu jihat Aristoteldan boshlangan G‘arb adabiyotshunosligiga qanchalik singib ketgan bo‘lsa, Sharq mumtoz poetikasida ham dastlab asarning janr xususiyatlarini o‘rganishga kirishilganini Shayx Ahmad Taroziyning asari orqali bilib olamiz.

Yuqoridagi adabiy janrlarga oid asarlardan kelib chiqib, turk shoiri Mehmet Akif Erso‘yning “Safihat” asarini sinchiklab kuzatganda, bu asar janr e’tibori bilan ham, o‘zining badiiy xususiyatlarini aks ettirish nuqtai nazaridan ham G‘arb va Sharq adabiyotshunosligi manbalarini o‘zida jamlagan, ulardan o‘z asarida foydalanganini kuzatamiz. Chunki, turk adabiyotshunosligi ham asrlar davomida mumtoz poetika an’analari asosida rivojlangan bo‘lsa ham XX asr boshlariga kelib, G‘arb poetikasidagi qarashlarga ham o‘ziga xos “adabiy javob” tarzida yaratilgan

---

<sup>25</sup> Алишер Навоий. Хамса: Ҳайрат ул-аброр / Мукаммал асарлар тўплами. 7-жилд. Т.: Фан, 1998. — Б. 83.

asardir. Buning mohiyatini yanada to'liqroq tushunish uchun turk olimlarining poetika masalalariga doir qarashlarini o'rganishimiz ham lozim bo'ladi.

Demak, poetika masalalari qadimgi davrlardan tortib shu kunga qadar adabiyotshunoslikning muhim jihati bo'lib, badiiylik xususiyatlarini o'rganish uchun kalit vazifasini bajaradi.

## **2. Turk adabiyotshunosligida poetika masalalari u haqda**

### **Mehmet Akif qarashlari**

Dissertatsiyaning asosiy vazifasidan kelib chiqqan holda turk va boshqa tillarda chop etilgan ilmiy adabiyotlarni o'rganib chiqdik. Turk tilida chop etilgan o'quv lug'atlaridan birida poetika shunday tushuntiriladi: "Poetika – she'r haqidagi fikrlarni va qarashlarning barchasidir. Bu so'z, bir qarashda, eskidan fransuzchada faqat she'r emas, go'zal san'atlarning falsafasi, estetikasini ifoda etarkan, bugun she'r san'ati ma'nosida kelgan bir atamani anglatadi. G'arp tillarida poetika mavzusiga kirgan bir qancha asarlar bor. Turkchada esa, ba'zi she'r xususiyatlari haqida bir qancha asarlar yozilgan. Nojib Fozil Kısakurakning ham "Poetika" nomli asari bor"<sup>26</sup>.

Demak, she'riyatga oid tushuncha va nazariyalarning barchasi "poetika" termini orqali anglatilmoqda. Hatto avvalgi davrlarda bu termin orqali nafis san'atlar nazariyasi ham tushunilgan ekan. Bugungi kunda "she'riy san'at" ma'nosida ham qo'llanilmoqda ekan (xuddi Aristotel aytgani kabi).

Yuqoridagi iqtibos qisqa o'quv lug'atidan olingani uchun boshqa mufassalroq tuzilgan lug'at va nazariyalarga e'tibor qaratamiz. Biroq barcha lug'at va ensiklopediyalarda poetikaga Aristotel asarining nomi va u bo'yicha talqinlar bayon qilingan. Shu kabi (muallifi ko'rsatilmagan) "Adabiyot terminlari lug'ati"da yozilishicha:

#### **1. She'r saboqlari.**

---

<sup>26</sup> Edebiyat terminleri sözlüğü. Turk edebiyati - Dil ve anlatim dersleri için Kaynak site. S. 23. / [www.edebiyatogretmeni.org](http://www.edebiyatogretmeni.org)

2. To‘g‘ri va go‘zal ifoda me‘yorlari.

3. Adabiy tanqid.<sup>27</sup>dan iborat.

Demak, biz ham poetika istilohi va masalalariga munosabatda ushbu yo‘nalishda fikr yuritishimizga to‘g‘ri keladi. “Poetika”ning dastlabki talqini “she‘r bilimi” yoki saboqlari hisoblanar ekan. “She‘r nima?” degan savol turk adabiyotshunosligida jiddiy qo‘yilgan va uning talqini shunday beriladi:

“She‘r” so‘zi kelib chiqishiga ko‘ra, *sezmoq, sezgi yo‘li bilan bilmoq, farqiga bormoq, shuurga berilmoq, his qilmoq* kabi tushunchalarni ifodalaydi. Turkchada “she‘r”ni oldinlari “nazm” deb atagan bo‘lsa ham vaqtlar o‘tgach, she‘rning qiymati vazn va qofiya bilan o‘lchanadigan “manzum eser” ma‘nosida qo‘llaniladi<sup>28</sup>.

Mana shu talablar asosida Mehmet Akif ijodiga murojaat etamiz. Mehmet Akif o‘z asarini she‘riy usulda, ya‘ni nazm yo‘li bilan yozarkan, turli she‘r shakllaridan foydalangani yuqorida eslatildi. Muallif o‘z asarining ifodasi bo‘lgan “she‘r”ga munosabati ham turk olimlari tomonidan o‘rganilgan. Chunonchi, Doktor Yilmaz Dashtchi o‘g‘lu “Tavfiq Fikrat va Mehmet Akifning she‘r haqidagi qarashlarini qiyosiy o‘rganish” mavzusidagi maqolasida shunday yozadi: “So‘z mavzusi ikki shoirning san‘at va adabiyot haqidagi qarashlari ularning asarlaridagi fikrlar bilan birga qiyosan tahlil etiladi. Shoirlarni bu mavzudagi qarashlaridan kelib chiqib ularning asarlari haqida so‘z yuritish mumkin boladi<sup>29</sup>.”

Tadqiqotchi ikki shoir Tavfiq Fikrat va Mehmet Akifning asarlarini qiyosan o‘rganish orqali har bir muallifning masalaga yondasuvidan tortib, ularning asarlari tahlili uchun adabiyot haqidagi qarashlarini birinchi navbatda o‘rganish lozimligini uqtiradi.

Mehmet Akifning adabiyot va san‘atga munosabati uning 1908-1919- yillar orasida “*Sırat-ı Müstakim*” (“To‘g‘ri yo‘l”) va “*Sebilü-r-reşâd*” (“Haqiqat yo‘li”) jurnallarida e‘lon qilingan maqolalarida bayon etilgan bo‘lib, uning tahlillari

<sup>27</sup> Edebiyat terminleri sözlüğü. www.baybut.com

<sup>28</sup> Türk Dünyası Edebiyat Kavramları ve Terimleri Ansiklopedik Sözlüğü. 5-cilt. Atatük Kültür Merkezi Başkanlığı Yayınları. Ankara, 2006. — S. 405.

<sup>29</sup> *Daşcioğlu Y.* Tevfik Fikret ve Mehmet Âkif’in şiir görüşleri arasında bir karşılaştırma. [www.Mehmetakifersoy.com](http://www.Mehmetakifersoy.com)

adabiyotshunosh olim Kozim Yetishning “Mehmet Akifning adabiyot, san’at va tafakkur dunyosiga chizgilar” kitobida ancha izchil bayon qilingan<sup>30</sup>. Bevosita Mehmet Akifning o‘z asarlariga murojaat qiladigan bo‘lsak, muallifning “Musahabe-i Edebiye” (“Adabiy bahslar”) sarlavhali suhbat usulida yozilgan maqolasida aytilishicha, Mehmet Akif poetika masalalariga yunon olimlari Aflotun va Arastuning qarashlarini asos qilib olgan ko‘rinadi<sup>31</sup>. So‘ngra Mehmet Akifning adabiyot va san’atga doir qarashlari asosida uch mavzu kuzatiladi. Bular “hakikat, hayot, müşahede”, ya’ni haqiqat, hayot va mushohadadan iborat bo‘lib, har bir asar adabiy sharoit asosida yoziladi: “haqiqat, hayot, mushohada har asarni adabiyotni she’riyatga asosidir. Bu she’riyatni izlasak har doyim topa olamiz. Hatta hech yo‘qtan bir mavzu ijod qiladigon vaqtimiz bile ishga tabiiylik bermoq uchun haqiqat istaganimiz bo‘lmoqlikdir.”<sup>32</sup> Bu jihatdan muallifning ushbu she’riy misrasi biz kutgan ma’noga ega:

*“Hayır, hayâl ile yoktur benim alış verişim;  
İnan ki her ne demişsem, görüp de söylemişim.”*

Tarjimasi:

*“Yo ‘q edi xayolimda bundayin savdo  
Menga ishon har bir narsani ko ‘rib aytishim”*

Haqiqat hayot orqali yuzaga chiqadi, men nimani mushohada etsam, nimani aytsam (yoki yozsam), faqat ko‘rganlarimni yozaman, degan fikri nafaqat uning adabiyot haqidagi tasavvuri, balki “Safohat” asariga bo‘lgan munosabatini ham anglatadi. Ma’lumki, asarning har bir sahifasi “hech bir yo‘qdan ijod etilmagan”, balki hayotiy voqealarning she’riy mushohada orqali bayon etilganidir. Shuning uchun ham Mehmet Akifning adabiyotga doir qarashlarini belgilashda olim Kozim Yetishning “realist-natüralist” sifatida hayotga yondashishini ko‘rsatib o‘tgan.

<sup>30</sup> Yetiş K. Mehmet Akif’in Sanat-Edebiyat ve Fikir Dünyasından Çizgiler, Ankara 1992. – S.218.

<sup>31</sup> Mehmet Âkif Külliyyatı. Makaleler / Hazırlayan İsmail Hakkı Şengüler. İstanbul, 1990. C. 5. S. 1-307.

<sup>32</sup> Sebülü-r-reşad, 30 Ağustos 1328/30 Ramazan 1330, C. 9-12. S. 210.

Bundan tashqari, Mehmet Akif “Adabiyot” nomli maqolasida: “Sanat sanat içindir. “San’at san’at uchundir. San’atda g’oya yangi san’atdir. Adabiyotda adabiyotdan boshqa g’oyani izlamoq san’ati bu taqlid demakdir” degan xulosaga kelgan<sup>33</sup>.

Tabiiyki, ushbu qarashlar zahirida yuqorida tilga olingan Aristotelning nimesis (taqlid) nazariyasi yotadi. Chunki ulug’ yunon olimining talqinicha, “san’at tabiatga taqliddan iborat” edi. Agar Mehmet Akif faqat tabiatga taqlid bilan cheklanib qolsa, uning asarlarida yuksak ijtimoiy masalalar yuzaga chiqmasligi ham mumkin edi. Shuning uchun ham u taqlidchi bo’lib qolmadi, balki “adabiyotda adabiy g’oyalar”ni ilgari surishni o’z asarlariga maqsad qilib qo’ydi va shuning uchun ham endi u “naturalist” emas, balki “realist” san’atkor darajasiga ko’tarildi. Shuning uchun ham uning yozishicha, “adabiyot nomi ostida millatning nomusi, hayoti, mavjudligi kabi bir turkum masalalar” yotishini mutafakkirona bayon qiladi. Mehmet Akif “San’at san’at uchun” g’oyasini esga olarkan, bu tamoyil “qorni to’q, usti but” millatlarga tegishli ekani, turkiy millatlar hayotida hamon asorat bor ekan, hozir ijtimoiy dardlarimizni to’kmak bu kungi adabiyotning vazifasi ekanligini ta’kidlagan, bu turk millati uchun ora, ya’ni bir mo’tadil yo’l demakdir: “Hozir ijtimoiy dardlarimizni to’kmakdan chekinmaymiz. Bundan maqsadimiz bir guruh bechoralarni boyitgan kabi millatni qo’lga olib, dushmanni razil etish emas, maqsadimiz o’zimizni emas, balki kamchiliklarimizni ko’rsatib berishdir. “Ijtimoiy holatimizni o’rtaga qo’yib, xalqni bundan nafratlanish sababini asil maqsadimiz uchun bu jihatdan bir ora yo’l tayin etmog’imiz lozim”<sup>34</sup>.

Mehmet Akif Erso’yning bu kabi qarashlarini milliy adabiyot tarixiga ham munosabatda ko’rishimiz mumkin. Ulug’ adib taqlid haqida fikr yuritarkan, “Mukallidligi de Yapamiyoruz” (“Taqlidni ham bajaramiz”) maqolasida turk adabiyotining Devon (mumtoz) adabiyoti davridan boshlab “Ganj qalamlar” (“Yosh ijodkorlar”) davrigacha kuzatishicha, turk adabiyotidagi adabiy jarayon

---

<sup>33</sup> *Sebilü-r-reşad*, 24 Şubat 1327/19 Rebiülevvel 1330, C.8-10. S.183.

<sup>34</sup> Tahkikat-ı Edebiye Sütunları // *Servet-i Fünûn*, c. 54, No: 1429, S. 360, 2 Teşrin-i evvel 1335/2 Ekim 1919.

qaysidir ma'noda arab adabiyoti tarixini eslatadi. *“Shoyoni hayrattirki, olti asrdan beri millat mavjudligini butun dunyoda himoya qilgan Usmonlilarning tarixiy siyosati tarix sahifalariga muhrlangan ekan, adabiyot tariximiz ham ko'zlarni qamashtirib, zehnlarimizni o'tkirlashtirib, faxrli o'tmishdan so'nuk bir shu'la va nojoiz xotira bo'lsinmi yoki yoqmi?”*<sup>35</sup>.

Arab adabiyotida johiliyya davri shoirlari, asosan, inson madhi bilan mashg'ul bo'lgan bo'lsalar, islomiyat davriga kelib, adabiyotda yuksak Qur'oniy mavzular, ma'rifiy masalalar yetakchi o'rinni egalladi. Xuddi shu kabi turk adabiyoti ham Qur'on hikmatlari bilan boyidi, ayni mana shu jihatdan ham adabiyot xalqning ma'naviyati va ma'rifatini oshirishga xizmat qildi. Bugungi adabiyotning vazifasi esa har ikki jihatni o'zida mujassam qilmoq, ya'ni devon adabiyotidagi ma'rifiy mavzularni o'ziga asos bilmoq va “Genj qalamlar” yozdi (vakili Umar Sayfiddin) singari g'oyat “inja va nafis” she'rlar bitmakdan iboratdir. Bizning shoirlarimiz G'arb she'riyatining maslagiga tamomila muvofiq asarlar bitishi bu millat manfaatini adabiy qarashlar bilan rost emasligini ko'rsatadi.

Adabiyot doimo axloq bilan bog'liq taraqqiy etgan, uning o'zagida ham “odob – adablar” so'zi borligini unutmagan holda Mehmet Akif nafaqat turk adabiyotiga, balki Sharq mumtoz adabiyotiga yuzlanar ekan, bu jihatdan Hakim Sanoiy va Shayx Sa'diyning fors tilidagi asarlaridan misol keltiradi.

Turkiy adabiyot tarixida Fuzuliyning san'at va ijtimoiylikni, ma'rifat va nafislikning benazir namunasi ekanligini misol qilib oladi: “Fuzûlî daha az şair, lâkin daha çok sanatkâr olsaydı, o eseri “Fuzuliy oz she'rlari bilan yuksak san'atkorlikni joriy qildi, u “Layli va Majnun”ni yuzaga chiqargan adabiyot mo'jizasi yaratib, go'zal bir badiiylikni yarata oldi”<sup>36</sup>.

Demak, adabiyot ma'rifat va axloq bilan bog'langandagina, u insoniyatga naf keltirishi mumkin. Bu jihatdan Mehmet Akif Erso'yning “Safihat” asarida tilga olingan masalalardan biri ham axloq va adabiyot ekanini shoirning ushbu she'rlaridan ham ko'rish mumkin:

---

<sup>35</sup> *Sirat-ı Müstakim*, 17 Eylül 1325/15 Ramazan 1327, c. 3, S. 54-55.

<sup>36</sup> Mehmet Âkif. Edebiyat Bahisleri: Plan-2 // *Sebilürreşad*, 19 Temmuz 1328 / 18 Şaban 1330, c. 8-1, S. 204, S. 416-417.

*“Ne kaldı? Bir edebiyâtımız mı? Vâ-esefâ!  
Bırak ki ettiği yoktur bir ihtiyâca vefâ;  
Ya rûh-ı milleti efsunluyor, uyuşturuyor;  
Ya sînelerdeki hislerle çarpışıp duruyor!  
Şarap kokar (bütin) eslâfin en temiz gazeli.  
Beş altı yüz sene “sâkî” havâ-yı mübtezeli,  
Sinir bırakmadı Osmanlılarda gevşemedik!*

*Muhîtin üstüne meyhâneler kusan bu gedik,  
Kapanmak üzre iken başka rahneler çıktı;  
Ayakta kalması lâzım ne varsa hep yıktı.  
“Değil mi bir tükürük alna çarpacak tedib,  
Ne hükmü var?” diye üç beş hayâ züğürdü edib,  
Bitirmek istedi ahlâkı, ârı, nâmûsu;  
Çıkardı ortaya gezdirdi saksılar dolusu,  
Hevâ-yı fuhşu kudurtan zehirli “Zambak”lar!”<sup>37</sup>*

Tarjiması:

*“Nima qoldi? bir adabiyotimizmi? Afsuslar bo‘lsin!  
Qo‘ygin, qilgani yo‘qtur bir ehtiyojga vafo.  
Yoki millatning ruhini afsunlab, mast qilyapti.  
Yoki ko‘ngillardagi hislarla to‘qnashib turyapti.  
Sharop hidi chiqar barcha salaflarning eng toza g‘azali.  
Besh, olti yuz yil “soqi” havoyi qiymatsiz  
Chegara qoldirmadi usmonlilardan bo‘shashmadik.*

*Muhitning ustida mayxonalar qurgan bu yara  
Yopilish payitida boshqa zararlar chiqti.  
Oyoqta qolishi lozim nima bo‘lsa hamisha buzdi.  
“Emasmi bir tupuk peshonaga tegadi tarbiya etib.*

<sup>37</sup> Mehmet Âkif. Berlin Hatıraları” / Safahat, Haz. Orhan Okay-Mustafa İsen, Ankara 1992. — S. 280-281.

*Nima hokum bor?” deb uch besh uyalgan chirkin etib.*

*Bitirmoq istadi ahloqi, kirsiz nomus.*

*Chiqardi o‘rtaga aylantirdi gul tuvaklar to‘lasi.*

*Nafsi fahshi quturgan zaharli “Zambarak”lar*

*(Go‘zal yirikgulli o‘simlik)*

Mehmet Akif Erso‘yning poetika haqidagi qarashlari zamirida Aritotelning “san‘at tabiatga taqliddir” degan g‘oyasi yotsa ham, u XX asr farzandi sifatida san‘at asarlarining ijtimoiylashuvi jarayonini kuzatdi. San‘at zamonaviy G‘arb olimlari talqinicha, “San‘at san‘at uchun” g‘oyasi, umuman, san‘atkorlik va mahorat masalalariga tegishli bo‘lib, Sharq va G‘arb o‘rtasida turgan turk adabiyoti “g‘arblashib” ketmasligi kerak. O‘tmishdagi devon (mumtoz) adabiyotining an‘analariga sodiq holda ma‘rifat va hikmatni xoh she‘riy asarlarda bo‘lsin, xoh nasriy asarlarda bo‘lsin saqlab qolish adabiyot uchun muhimligini ko‘rsatdi. Uning zamonida “qadimchilar” bilan “Ganj qalamlar” mubohasasi qizg‘in davom etayotgan bir paytda, Mehmet Akif bir donishmand shoir sifatida ularning hech biriga tayanmadi, balki islomiy adabiyot an‘analaridan kelib chiqib, o‘rta yo‘lni tanladi.

Adabiyot mumtoz an‘analardan voz kechsa, o‘z o‘tmishi, tarixini yo‘qotgan kishi singari esankirab qolishi mumkinligini, yangilik axtaraman deb, mumtoz o‘zlikdan voz kechish qaysidir ma‘noda yangilikni adabiyotga olib kirishga ham xalaqit berishi mumkinligini donishmand olim sifatida farqlay bildi.

Mehmet Akif Erso‘y o‘z asarlarida, jumladan, “Safohat” asarida ham ana shu shonli o‘tmish an‘analarini saqlagan holda, uning shakli va shamoyilini belgilashda aruz vaznida yozilgan she‘rlarni ham, yangi hijo (barmaq) vazni jihatlarini ham birlashtira oldi. Bu muhtasham asar poetikasida, sujet yo‘nalishi va kompozitsion qurilishida esa, zamonaviy epik asarlarga mos yo‘l tanladi. Bir necha she‘rlardan, bo‘limlardan va voqealarning she‘riy bayonidan iborat asarini yagona, muhtasham bir shaklga solib, o‘z davrining eng yuksak lirik asari darajasiga ko‘tara oldi.

## I bob yuzasidan qisqacha xulosalar

1. Adabiyotshunoslikda “poetika” atamasini ilmiy muomalaga kiritgan olim Aristotel bo‘lib, “Poetika” (“She’riy san’at”) asarida ushbu tushuncha “badiiylik ilmi” sifatida ilk bor sharhlab berilgan. Ushbu qarash ko‘p asrlar davomida badiiy asarlarni o‘rganish mezonini bo‘lib hisoblangan.

2. XIX asrning oxiri XX asr boshlarida G‘arbiy Yevropa, xususan, rus adabiyotshunosligida poetikaning mohiyatini chuqurroq anglatishga, uning vazifalarini belgilashga qaratilgan ta’limot vujudga keldi. A.N.Veselovskiy “tarixiy poetika”, A.A.Potebnya “nazariy poetika” masalalarini ishlab chiqqan. Ularning ishlarini nazariy umumlashtirgan V.M.Jirmunskiy “poetikaning vazifasi”ni badiiy asarni tashkil etuvchi elementlarning o‘zaro aloqadorligi orqali ko‘rsatgan va badiiy uslubni shakllantiruvchi asos sifatida e’tirof etgan.

3. Hozirgi kunda rus va o‘zbek tillarida chop etilgan adabiyotshunoslik lug‘atlarida, asosan, poetikaning umumiy xususiyatlarini ko‘rsatish bilan birga, uning umumiy va xususiy jihatlari (S.P.Belokurova) hamda tor va keng ma’noda tushunish (D.Quronov va boshqalar) mavjudligini ko‘rsatib, poetika bevosita badiiy asarning shakli va uni hosil qiluvchi komponentlar, ularning badiiy matndagi o‘rni kabi tushuntirishlar mavjud.

4. Sharq mumtoz adabiyotshunosligida “poetika” istilohi qo‘llanilmagan bo‘lsa ham, uni “ilmi adab” (filologik ilmlar) tarkibida ko‘rish, xususan, she’r ilmiga oid aruz va qofiya masalalari hamda balog‘at (ilmi ma’ni, ilmi bayon va ilmi sanoe’) fanlari bilan bog‘lab tushunish urfi bo‘lgan.

5. Sharq mumtoz poetikasiga xos xususiyatlarni o‘rganish hozirgi kun adabiyotshunosligining ham dolzarb masalalaridan hisoblanib, uning yordamida XX asr boshlarida bitilgan turkiy adabiyot namunalari tahlil qilish, jumladan, turk adibi Mehmet Akif Erso‘yning “Safihat” asarining badiiy jihatlari tadqiq etish mumkin.

6. Turk olimlarining ishlarida poetika masalalari Sharq adabiyotining umumiy jihatlari bilan Yevropa adabiyotidagi badiiyat talablarining o‘zaro uyg‘unligi

holida namoyon bo‘ladi. Bundan jihatlar Ahmad Qaboqli, Yilmaz Dashtchi o‘g‘li, Kozim Yetish kabi turk olimlarining ishlari xarakterlidir.

7. Mehmet Akif Erso‘y poetika masalalariga doir yozilgan maqolalarida Aristotel g‘oyalariga tayangan bo‘lsa ham, amalda u muhtasham Sharq she‘riyatidagi ma‘rifat, axloq va mahorat uchligini o‘z asarlari uchun asos o‘laroq qabul qildi. Mavzuimiz boisi bo‘lgan “Safohat” asarida sharqona she‘riyat motivlarini ham, g‘arbcha tasvir usullarini ham sintez qilgan holda XX asr boshlari epopeyasini yarata oldi.

8. Mehmet Akif Erso‘yning “Safohat” asari poetikasini o‘rganish uchun G‘arb istilohidagi poetikani ham, Sharq mumtoz poetikasining ham mushtarak jihatlarini qo‘llash lozim bo‘ladi. Chunki ushbu asar tarkiban G‘arb adabiyotidagi “sinkretik epopeya” shaklida yaratilgan bo‘lsa ham uning tarkibida Sharq she‘riyatiga xos janrlar, jumladan, g‘azal, masnaviy kabi poetik shakllar ham uchraydi.

## II BOB. “SAFOHAT” ASARINING G‘OYAVIY MUNDARIJASI VA STRUKTURASI

### 1. “Safohat” asarining mavzusi, g‘oyasi va asosiy muammosi

XX asr turk adabiyotining yetuk namoyandalaridan biri, “Sirot-ul-mustaqim” (mart) gazetasining asoschisi va noshiri, “Istiqlol marshi”, davlat madhiyasining muallifi Mehmet Akif Ersoy (1873-1936) nafaqat turk adabiyoti, balki Sharq va Yevropa ma’rifatchilik adabiyotining taniqli namoyandalaridan biridir. XX asr boshlari Turkiya madaniy hayotining hech bir sohasi yo‘qki, u Mehmet Akif Ersoy faoliyati bilan bog‘lanmagan bo‘lsin. Buni to‘laroq tasavvur qilish uchun adib tarjimai holining ayrim jihatlariga e’tibor qaratishimiz lozim bo‘ladi.

Mehmet Akif Erso‘y ilk maktabni tugatgandan so‘ng Baytarlik va Ziroat (Qishloq xo‘jaligi) bilim yurtida ta’lim oldi. Dastlabki ish faoliyati davomida baytarlik taftishchisining muovini sifatida Onado‘lu, Rumeli, Arabistonda ishladi. 1914-yildan Bayrut, Qohira va Madinada, 1915-yildan Berlinda bo‘ldi. 1916-25-yillarda o‘zining ona yurti Istanbulda yashab, mamlakatdagi siyosiy hayotda faol ishtirok etdi, “Sirot-ul-mustaqim” (“To‘g‘ri yo‘l”) gazetasining asoschisi va noshiri sifatida tanildi. Keyinroq “Sabil-ur-rashod” (“Haqiqat yo‘li”) gazetasida muharrir bo‘lib ishladi. 1925-yildan keyin yana Misrda yashashiga to‘g‘ri keldi va 1935-yillarda kasallanib, o‘z ona yurtiga qaytdi. shoir 1936-yilning 27-dekabrida vafot etdi.

Mehmet Akif Erso‘y ayrim davrlarda maktabda adabiyot fanidan dars bergan, keyinroq Qohira universitetida turk adabiyoti o‘qituvchisi sifatida faoliyat yuritgan. Misrda yasharkan, Qur’oni karimning ma’nolarini turkchaga tarjima qildi va uzoq yillar davomida qilingan mehnat natijasi bo‘lgan bu tarjima Mehmet Akif Ersoyning vasiyatiga ko‘ra, uning o‘limidan so‘ng nashr etilmay yoqib yuborildi.

Talabalik yillaridayoq she’r yoza boshlagan shoir 1910-yillarga kelib shoir sifatida mashhur bo‘ldi. Uni dunyoga mashhur qilgan she’ri – “Istiqlol marshi” Turkiya jumhuriyatining davlat madhiyasi deb qabul qilindi va hozirgi kunga qadar u davlat madhiyasi sifatida jaranglab turibdi.

Mehmet Akif Ersoy XX asr boshlarida Istanbulda yuz berayotgan siyosiy va madaniy o'zgarishlar davrida o'z mamlakatidan yiroqda xizmat safarida bo'lsa ham undan ajralib qolmadi. Ayniqsa, 1908-yilgi mashrutiyat (Konstitutsiya) talabi bilan chiqqan "Ganj turklar" ("Yosh turklar") harakatining yetakchilaridan biriga aylandi va madaniy hayotdagi tub o'zgarishlarda faol ishtirok etdi.

1910-yillardan "Sirotu-l-mustaqim" gazetasining noshiri sifatida ko'plab maqolalar e'lon qildi va shoirning o'nlab she'rlari ham mana shu nashr vositasida ellarga tanildi. 1912-yilda gazetaning 183-sonidan e'tiboran "Safokat" asari doimiy suratda bosilib turdi va unga turk jamiyatining eng ilg'or vakillari, adiblar, jurnalistlar, madaniyat va fan arboblari o'z munosabatini bildirdilar.

Chunki bu davr ayrim manbalarda yozilganidek, ota qizg'in, munozara va tahlikalarga boy davr edi. 1876-yilning 31-avgustida taxtga chiqqan Abdulhamid II hokimiyatni qo'lga olishdan avval xalqning kayfiyatini ma'qullaganday bo'lib, yangi konstitutsiya (qonun-i asosiy) loyihasini tayyorlagan Midhat Poshho va uning tarafdorlarini qo'llab-quvvatlagan hamda o'sha yilning 23-dekabrida konstitutsiya e'lon qilinishiga qarshilik qilmagan edi. Bu qonun-i asosiydagi yangilikka ko'ra, Yevro'padagi kabi, "o'yon va mebuson" (ya'ni senator va millat vakillari)dan iborat ikki palatali majlis podshoh faoliyatini nazorat ostida tutishi kerak edi. Yangi konstitutsiya uchun harakat boshlangandan buyon davlatning idora etilishiga xalqning ishtirokini ham ta'minlash masalasi topshirilgan, "sho'ro" (maslahat) va "mashvarat" (kengash) yo'llari ham tavsiya etilgan edi.

Asarda tasvirlangan voqealardan kelib chiqib, 1877-yil 5-fevralda Midhat Poshoni to'satdan saroyga chaqirib, noaniq sabablar bilan chet elga chiqarib yuborilishiga erishdi. Abdulhamid II yangi konstitutsiyaga bo'ysunishni istamay qoldi. Abdulhamid II 30 yil davom etgan hukmdorligi vaqtida tashqi siyosatda nihoyatda ehtiyotkorlik yo'lini tutdi.

Usmonli imperiyasi isyon ko'targan yurtlarga oz-ozdan yon berib, yildan yilga kichrayib bordi, ichki siyosatda esa har qanday g'alayonu siyosiy harakatlarni bostirib, nisbiy tinchlik-barqarorlikka erishib, yurtda obodonchilik va madaniyat ishlarini rivojlantirishga harakat qildi: temir yo'li, pochta, telegraf tashkilotlari

qurdirdi, ayni chog‘da o‘z huquqlarini kengaytirib istibdodni orttirdi. Shu tariqa imperiyada tanazzul chuqur ildiz ota bordi. Bu haqda “Islom ensiklopediyasi”da shunday ma’lumot berilgan: “Bir tarafdin moliyaviy yetishmovchiliklar va har turli hurriyatlarning taqdid va shartlari, davlatning chet mamlakatlar qarshisida o‘z mavqeini himoya qilishga ega emasligi, vaqti-bevaqt yuz berib turgan ichki isyonlarning takrorlari, yangi-yangi muxtoriyat va istiqlol talablari hamda buyuk davlatlarning bunday vaqtlardan foydalanib qolishlari, davlatning butunlay parchalanishiga yo‘l ochuvchi haq-huquq talablarining bitmas-tuganmasligi borgan sari xalq tabaqalarida norozilik uyg‘otayotgan va yashirin muxolif tashkilotlar tug‘ilishiga sabab bo‘layotgan edi”<sup>38</sup>.

1889-yilda “Ittihad va taraqqiy” (“Birlik va taraqqiyot”), “Ganch usmonlilar” (“Yosh usmonlilar”) kabi jamiyatlar qurilib, ular Abdulhamiddan maktablarga, matbuot va nashriyotlarga diqqat qaratishni talab qila boshladilar. Podshoh bunga javoban bu tashkilotlarga nisbatan ta‘qibni oshirdi, so‘ngra bu jamiyatlar yashirin faoliyatga o‘tdilar, uning a‘zolaridan esa bir qismi chet ellarda, bir qismi ichkarida shiddatli faoliyatga kirishib, mashrutiyat (konstitutsiya)ni tiklash uchun kurash boshladilar.

Nihoyat 1908-yil 23-iyulda Usmonli imperiyasida ikkinchi marta mashrutiyat e‘lon qilindi. “Ittihad va taraqqiy” jamiyati Mashrutiyat e‘lonidan keyin mamlakatda shariatga mos hurriyat yaratishni, tanazzuldan boshi chiqmayotgan vatanni falokatlardan qutqarish uchun armiyani va hokimiyatni, ta‘lim-tarbiya sohasini va madrasalarni isloh qilishga va‘da berdi. Mehmet Akif ana shunday bir tarixiy sharoitda maydonga chiqqan, “Ittihad va taraqqiy” jamiyatiga a‘zo bo‘lib kirgan edi.

1908-yil 27-avgust kuni Istanbulda “Sirotu-l-mustakim” haftalik gazeta bosilib chiqdi. Muassislari prof. Abululoh Zaynulobidin va huquqshunos Hofiz Ashraf Adib bosh muharrirlikka Mehmet Akif Erso‘yni taklif etishdi. Gazeta falsafa, adabiyot, huquqiy ilmlardan bahs yuritar, formati 20x28,5 santimetr bo‘lib, har soni 16 sahifadan iborat edi.

---

<sup>38</sup> Islom Ensiklopedisi. Ankara, 1984. 1-jild. S. 79.

“Safohat” tarkibiga kirgan asarlarning yozilish davri haqida so‘z yuritilganda, ularning ayrimlari shoirning ilk maktabdalik davrlarida boshlanganini kitob mundarijasidan sezamiz. Biroq undagi asosiy voqealar 1908-1933- yillarni o‘z ichiga olishini mutaxassislar qayd etishgan. Asar nashr etilishining o‘zi bir tarix. Chunki bu ko‘p jildli qomusiy asarning to‘la nashr etilishi qariyb 20 yilga yaqin vaqtni o‘zi ichiga qamrab olgan. Yetti kitobdan iborat asarning 1-kitobi 1911-1914- yillar orasida nashr etildi. Ikkinchi kitob esa 1917-1924- yillarni o‘z ichiga oladi. Keyin esa qolgan kitoblari ham ketma-ket nashr etildi. Ma’lumki, shoir 1925-yildan keyin Misrda yashagan. Shuning uchun ham uning keyingi kitoblari Misrda nashr etilgan.

Mehmet Akif Ersoyning “Safohat” asarining boshlanishidanoq muallif kitobxonga murojaat qilib, bu kitob “bir yig‘ma so‘z” ekanligini aytadi:

*Şi’r için “göz yaşı” derler; onu bilmem, yalnız,  
Aczimin giryesidir bence bütün âsârım!  
Ağlarım, ağlatamam; hissederim, Söyliyemem;  
Dili yok kalbimin, ondan ne kadar bîzârım  
Oku, şâyed sana bir hisli yürek lâzımsa;  
Oku, zira onu yazdım, iki söz yazdımsa.<sup>39</sup>*

Tarjimasi:

*She’rni ko‘zyoshi derlar, buni bilmadim, ammo  
Ojizligim giryasi mencha butun osorim.  
Yig‘lab, yig‘latolmayman, hislarim aytolmayman,  
Tili yo‘q yuragimning, undan behad bezorim.  
O‘qi, shoyad senga bir hisli yurak ko‘r bo‘lsa,  
O‘qi, zero ki yozdim, ikki ko‘zim bor bo‘lsa.<sup>40</sup>*

---

<sup>39</sup> Mehmet Âkif Ersoy. Safahot. Istanbul: Inkılap Kitabevi, 1987. — S. 3.

<sup>40</sup> Mehmet Âkif Ersoy. Safahot. T.: Mumtos so‘z, 2016. — B. 20 (bundan кейинги ўринларда мазкур нашрнинг саҳифаларини қавс ичида келтириш билан чекланамиз).

Ma'lum bo'ladiki, bu asar ko'z yoshlarnigina emas, undan ham ko'proq, chunki bu birgina shoirning "giryasi" emas, balki XX asr kishilarining nidosidir. Uni o'qi, yuragi ko'r kishilar buni tushunmasligi mumkin, biroq mening ikki ko'zim bularni ko'rgan.

Ko'rinadiki, bu epopeya o'z davrining ko'pgina masalalarini o'z ichiga qamrab olgan asardir. Shuning uchun uning dastlabki bo'limlari tarjimayi hol kabi tasavvur uyg'otsa ham, keyingi bo'limlarda davrning "ko'z yoshlari", "qalb nidolari" baralla eshitilib turgan, ijtimoiy ruhdagi asar ekani ma'lum bo'ladi.

Asarning birinchi bob "Fotih jome'si" tasviridan boshlangan. Chunki shoirning tarjimayi holida ham Fotih masjidi va uning munosabati bilan mamlakatda o'qitish – maorif masalalarining qo'yilishi alohida ahamiyatga egadir. Masjid azaldan kishilarga ma'rifat tarqatuvchi maskan ekani barchaga ma'lum. Bu o'rinda muallif Fotih jome'sining tasviri orqali muallif ilk bor 8 yoshida otasi uni ma'rifatga chorlab aytgan so'zlarini keltiradi:

*Sekiz yashında kadardım. Babam gelir: “Bu gece,  
Sizinle câmie gitsek çocuklar erkence.  
Giderseniz gelin amma namazda uslu durun;  
Merâminiz yaramazlıksa işte ev, oturun” (S.8)*

Tarjimasi:

*Sekkiz yoshlarga kirgandim. Otam bir kecha shunday dedi:  
Bolajonlar, sizlar bilan jome'ga bir borsak edi,  
So'z bo'lardi, lek namozda nihoyatda jiddiy turing,  
Sho'xlik qilmoqchi bo'lsangiz, u holda uyda o'tiring! (B.22)*

Bu so'zlar bola Mehmet qalbida nafaqat ma'rifatga yaqinlashuv, balki o'ziga xos mas'uliyat tuyg'ularini ham his qilishga undaydi. Chunki bola hali jome'ga bormay turiboq u yerda gaplashish, ortiqcha o'yin, qiliqlarga o'rin berish mumkin emasligini tushunadi. Jome masjidi bilan ilk tanishuv bola qalbidagi tuyg'ularni tartibga sola boshlaydi, uni dastlabki "ruhiy imtihon"dan o'tkazadi.

Asardagi

*Hasan, dayim yatı mekteplerinde zâbittir;  
Senin de zihnın acık... Söylemiş olaydık bir...  
Koyardı mektebe... Dur söyleyim” demişti hani? (S. 25)*

Tarjimasi:

*“Hasan, tog‘am yotoqli bir maktabda zobitdir;  
Sening zehning esa zo‘r... Kelsa, gap ochaylik bir...  
Olarjadi maktabga... Aytaylik” demabjadi? (B.32)*

so‘zlari bilan muallif bolanigina emas, balki kitobxonlarni ham maktabga boshlaydi. Keyin esa “Xasta”, ya’ni qahramonining kasallanishi voqeasini tasvirlab, Ziroat (Qishloq xo‘jaligi) maktabida kechgan bu voqea unga jiddiy ta’sir etganini yozadi. Kasallangan bola maktabga borolmasligi mumkin, lekin nazoratchining qat’iy talabi bilan uni maktabdan chetlashtirishadi. 3,5 yil mobaynida maktabda mualliflarning aytganini qilib yurgan, o‘qishni jondan sevgan bolaning kasalligi tufayli maktabdan ketkazilishi uning uchun juda katta ayriliq edi:

*Üç buçuk yıl bana katlandı bu mektep, üç gün  
Daha katlansa kıyamet mi kopar? Hem ne için  
Beni yıllarca barındırmış olan bir yerden,  
“Öleceksin!” diye koğmak ? Bu koğulmaktır. (S.13)*

Tarjimasi:

*Uch yarim yil aytganin qildirdi maktab, uch kun  
Yana qildirsa hayot o‘zgaradimi? Nechun  
Necha yillarcha menga boshpana bo‘lgan yerdan  
“O‘lasan!” deb ketkizmoq. Bu quvib solmoq birdan. (B. 26)*

Bu katta ayriliq, bolaning kasalini battar qildi, endi uning umidi Hasan tog‘asidan edi. U “yotoqli bir maktab”da zobit bo‘lib, uning yordami bilan bola

maktabga kirishi mumkin edi. Bola endi boshqa maktabga boradi va u yerda maktabning eshigi ochilib, bir necha ellikdan ortiq bolalar u yerdan “sochilib” chiqishi bolaga jiddiy ta’sir ko’rsatadi va endi o’z sevgan maskani – maktabga borish imkoniyati tug’ilayotganidan u behad xursand edi: “Sen uchun boshlang’ich maktab eshigi ochildi lang” deb yozadi muallif.

Ushbu voqeani o’qigan kitobxon qalbida, xuddi boladagi kabi maktabga havas, undan umidvorlik, 50 bolani oz bag’riga olgan maktab, uni ham bag’riga olishi mumkinligidan umidvorlik hislarini uyg’otadi. Asardagi voqealar ketma-ket kelmaydi, u sujetli roman emas, balki ayrim-ayrim parchalardan iborat mantiqiy davomiylikka ega bo’lgan asardir. Ayni shu voqeadan keyin asar tarkibida “Tavhid” bo’limining kelishi va uni muallif “Faryod” deb nomlashi bejiz emas.

Bu qalb faryodi bo’lib, yagona Yaratganga nisbatan insonlarning uni bilishga, kashf qilishga intilishining samarasi edi. Bola buni maktabdayoq anglashi kerak bo’lgan zarur masala sifatida qo’yiladiki, bundan XX asr boshlaridagi maktablarda fanniy masalalar diniy masalalardan ajratib emas, balki birgalikda berilganini anglab yetish qiyin emas. Undan tashqari, sakkiz oy ishlagan ayrim muallif va nozirlarning maoshsiz qolishi voqeasi orqali asr boshlaridagi muhtojlik, shunga qaramay, fidoyi o’qituvchilarning bolalarga ta’lim berishdan to’xtamasliklari kabi masalalar ochiq ko’ngillik bilan tasvirlanadi.

Bunday qiyin sharoitda bolalarni maktabga berish, uning o’qishi uchun ham ota-onalardan mablag’ sarf etilishi voqealari juda ta’sirlik ko’rinadi. Bunday tahlikali hodisalarni o’qigan kitobxon bizning mustaqil diyorumizda maktablar pulsiz ekani, mamlakat konstitusiyasiga ko’ra, har bir bola bilim olish huquqiga ega ekanligini ko’rib sevinadi. XX asr boshlaridagi muallif tasvirlagan maktab bilan shu kungi maktab, o’qituvchilarni solishtirish imkoniyatiga ega bo’ladi.

Muallif maktab xususida so’z yuritarkan, boshlang’ich maktabda nimalar o’qilishi lozimligini alohida ta’kidlaydi. Hali o’rta va yuqori maktablarga bormay turib, bola boshlang’ich maktabda ta’lim olishi, bu maktab, albatta, mahalla maktabi bo’lishi lozim, degan fikr kelib chiqadi. Muallifning “mahalla maktabi” deya bezovta bo’lishining sababi bor.

Mahallalardagi mavjud maktablar bola uchun uyga yaqin joyda bo‘lishi kerak, bu birinchidan, maktabga borib-kelishni osonlashtiradi, ikkinchidan, maktab bilan oila o‘rtasidagi munosabat doimiy bo‘lishini, ota-onalarning maktabga oson kelishi va o‘qituvchining o‘z o‘quvchisining uyiga borib turishi masalalarini osonlashtiradi. Qolaversa, ilk maktabda husnixatni egallash lozim bo‘ladi. Bola erta yoshdan go‘zal va savodli xat egasi bo‘lib yetishishi lozimki, bu jihatdan nafaqat mahalla maktabida oddiy harflar va imlo o‘qitilishi, balki “suls”, “nasx”, “nastaliq” singari yozuv usullaridan ham xabardor bo‘lishi taqozo etiladi. Chunki arab yozuvidagi bu shakllardan birini bilmasa, bola xatni yoki kitobni o‘qiy olmaydi.

Eski maktablardagi kitoblar bugunguday bir xil yozuvda emas, balki yuqorida yozilganiday turli xatlar orqali qo‘lyozma kitoblarda aks etgan. Bularni bilmaslik bolani savodsizlikka olib keladi.

*Mahalle mektebi lâzımdır eski yolda bize;*

*Sülüs, nesih bitiyor yoksa hepisi... keyfinize!(S.200)*

Tarjimasi:

*Mahalla maktabi lozimdir eski yo‘lda bizga;*

*Yo‘qsa yo‘qolar suls, nasx... chiroyli yozuvimiz-da. (B.104)*

Onalar esa bolani maktabga yuborar ekan, unga yarashilik, “posholar”cha, ziyolilarga mos kiyim tikishi ham zarur bo‘ladi:

*Başlattığı gün mektebe, duydum ki, dıyordu,*

*Rahmetli babam: “Âdem olur oğlum ilerde.”*

*Annemse, oturmuş, paşalıklar kuruyordu... (S.135)*

Tarjimasi:

*Meni maktabga yo‘llarkan, esitdim, rahmatli otam*

*Onamga der ediki: “O‘g‘lim bo‘lar yaxshi odam.”*

*Onam esa menga tikar edi posholik kiyimin (B.117)*

“Ochiq ziyon” deb nomlangan bobdan olingan mana shu tasvirdan esa bolalarning maktabda bir-biriga yaqin shakl va tUSDagi kiyimlar kiyishi lozimligi aytiladi. U vaqt maktablarida garchi hozirgiday “forma” tiktirib kiyish imkoniyati ko‘rsatadi.

Mehmet Akif Erso‘y XX asr boshlaridagi hayotni tasvirlar ekan, maktablarning qarovsizligi, muayyan bir boshqarma tomonidan boshqarilmasligi, davlat nazoratiga olinmay, unda o‘qituvchining istagiga ko‘ra bilim berilishi kabi holatlarni ochiq bayon qiladi. Bola mahalla maktabidan chiqsa, uni davom ettiradigan madrasaning yaqin-atrofdagi yo‘qligi, har kim o‘z bilgicha turmush tashvishlari bilan bog‘lanib qolishi va natijada askarlar harbiy intizomdan uzoq qolib ketishi kabilarni ko‘rsatish bilan ko‘z oldimizda bundan yuz yil avvalgi hayotni gavdalantirib bera oladi. Lekin shunga qaramay, ayrimlar uchun ish topish oson ko‘chadi, u hali maktabni bitirmay osongina mulozimlikdan ish topadi.

Ayrimlar esa yaxshi o‘qishlariga qaramay ishsiz, ba’zilar nochorlikdan askarlikka ketadi, askarlarning ham yumushi yaxshi emas:

*Kışla yok, dâire yok, medrese yok, mektep yok;  
Ne kılıç var, ne kalem... Her ne sorarsan, hep yok!  
Kalmamış terbiye askerde. Nasıl kalsın ki?  
Birinin ömrü mülâzimlikta geçerek öteki,  
Daha mektepte iken tayy-ı meratible ferik! (S.163)*

Tarjimasi:

*Kazarma yo‘q, boshliq yo‘q, madrasa yo‘q, maktab yo‘q.  
Na qilich bor, na qalam... Ne so‘rasang albat yo‘q!  
Askarda intizom yo‘q, tarbiya undan battar.  
Birining butun umri mulozimlikda o‘tar,  
Biri maktab bitirmay, darrov bo‘lar mansabdor. (B.139)*

Yuqorida keltirilgan parchalar va ularning talqini asarning mavzusi haqida kerakli darajada ma’lumot berishi mumkin. Chunki XX asr boshlarida juda ko‘p

asarlarning ma'naviy dasturiga aylangan ma'rifat masalasi ushbu asarning ham bosh mavzusi ekanini anglash qiyin emas.

Mamlakatdagi qiyinchiliklarni ko'rgach, muallif Allohga nido qilib, bizga "insoflik rahbar" bergin deb iltijo qiladi. Chunki bu qadar tartibsizliklarni yengish uchun, o'qitish tizimini yaxshilash uchun mamlakatdagi boshqa tizimlarni ham yo'lga qo'yish lozim edi. Shuning uchun muallifning da'vati bilan yangilanishlar va islohotlar sodir bo'ladi, yangi maktab deyilganda o'z izchil tizimiga ega bo'lgan, maxsus dastur va darsliklar asosida o'qitadigan va maktabdan so'ng ta'limni davom ettiradigan madrasalar bo'lishi lozimligini muallif o'z asarida tushuntirib beradi. Endi mamlakatdagi Jumhuriyat (1923-yil)dan keyingi o'zgarishlarni u qanoat bilan qabul qiladi, uni yo'qlaydi:

*Açtık oldukça gzel medreseler, mektepler;  
Okuyup yazmayı tâmîme çalıştık yer yer (S.166)*

Tarjimasi:

*Ochdik rosa chiroyli madrasalar, maktablar,  
Savodli qildik elni, oshdi ilmtalablar. (B.141)*

Chunki hurriyat nafaqat iqtisodiy to'kislik baxsh etdi, balki shu hurriyat tufayli qator masalalar yechilishi barobarida maktab va maorif muassasalarining o'zgarishi ham sodir bo'ladi. Lekin har bir muallif va o'quvchi, talaba va mudarris anglashi lozim bo'lgan masala bor:

*"Zevk-I hürriyet omlar daha çok anlamlı"<sup>41</sup>*

Tarjimasi:

*Huriyatning zavqini ular anglashalari kerak ko'proq...*

Mana shu satrda "Safohat" asarining bosh g'oyasi ochiq ko'rinadi. Undan maqsad xalqda hurriyat, erklik istagini uyg'otish, buning uchun ommani ma'rifatli

---

<sup>41</sup> Ersoy Mehmet Akif. Safahat. Ankara, Mehmet Akif Ersoy Üniversitesi Yayini, 2013. — S.223

qilish va uning asosida esa mamlakatni yangi taraqqiyot yo‘liga boshlash. Agar mana shu oddiy talabni xalq anglay bilmasa, nima qilish kerak degan savol qo‘yadi muallif. Maktabdorlar o‘z maktabini yopsalar, yana yangi istibdod vujudga kelmaydimi, deya unga o‘zi javob beradi. Bu o‘rinda Mehmet Akif Erso‘y ilgari surgan g‘oyalardan yana biri “Tazyiq ila ta’lim berish – bu ham emish bir istibdod...” Demak, ta’lim tizimini tazyiq, majburlash asosiga qo‘ymaslik kerak. Ta’lim ixtiyoriy bo‘lishi barobarida bolalarni bag‘riga chorlay oladigan darajada yoqimli ham bo‘lishi kerakdir. Ana shundagina darslar va mashqlar bolalarga zo‘rlilik qilmay, ular uchun sevimli mashg‘ulotga aylanishi mumkin.

XX asr boshlaridagi ma’naviy hayotni maktab va maorifsiz tasavvur qilib bo‘lmaganiday, ayni zamonda ma’rifatning boshqa sohalari, jumladan, e’tiqod va diniy masalalar, ma’rifatning san’at asariga munosabati kabi muammolar ham borki, ularni asar orqali o‘rganmay turib, “Safohat”ning g‘oyasi va asar muammosini to‘la tasavvur etib bo‘lmaydi. Yuqorida ko‘rganimizday, asarning bosh g‘oyasi – ma’rifat. Mana shu g‘oyadan kelib chiqib, muallif o‘z asarining shaklini belgilagan, murakkab nazm parchalaridan iborat bu asarda ma’rifat har misrada ulug‘langanini ko‘ramiz.

Ma’rifat maskanlaridan keyin muallif ma’rifatning nafaqat moddiy maskanlari, balki bu tushunchaning ma’naviy qamrovlari ham belgilab beradi:

*Ey rûh-i fezâ-gerd, giran-seyr-i harîmin,  
Ey, natîka, dembeste-i esrar-ı azimin,  
Maksûd bu hilkatten eger ma’rifetinse;  
Varmış mı o müdhiş görünen gâyet kimse? (S.18)*

Tarjimasi:

*Ey ruh-i fazogirim, ey, muqaddas harimim,  
Ey notig‘im, nafasi chiqmay qolgan azimim,  
Yaratilishdan maqsad agar ma’rifat bo‘lsa,  
Og‘ir ko‘ringan maqsad sari borganmi kimsa? (B. 28)*

Bu satrlar orqali muallif ma'rifatga erishishlik oson emasligini ta'kidlamoqda. Bu olam sahnasida orzu-niyatlar ko'pligi aytiladi, biroq ular orasida insonni saodatga boshlaydigan, hamma yutuqlarga kalit vazifasini o'taydigan hodisa ma'rifat ekani uqtiriladi. Yuqoridagi murojaatda buning umumiy jihatlari aytilsa, endi sababdan oqibatga qarab tushuntirish beriladi:

*Zâlimde teaddîye olan meyl nedendir?  
Mazlûm niçin olmada ondan müteneffîr?  
Bir fâilin icbâri bütûn gördüğüm âsâr!  
Cebrî değilim... Olsam İlâhî ne suçum var? (S.18)*

Tarjimasi:

*Zolimda jazolashga bo'lgan mayl nedandir?  
Mazlum nechun bo'lmoqda nafratga duchor, axir?  
Doim bir shaxs azobi butun ko'rganim osor!  
Jabrllovchi emasman... Rabbim, nima aybim bor? (B.28)*

Mamlakat ma'rifat sahnasiga aylanishi mumkin edi, biroq unda jobirlar – jabr qiluvchi zolimlar bor. Ular o'zlarinin zulmlarining sababini ham qonuniy deb bilishadi. O'zlari qobil bo'lgan jihat orqali nimaga erishsa, buni qonuniy deb biladilar. Holbuki, zulm bilan erishilgan narsa u doim istibdoddir, hatto muallif yuqorida aytganiday, ta'lim ham jabr bilan berilsa, uning istibdoddan farqi yo'q. Shuning uchun ham muallifning Ilohga murojaati orqali dunyodagi barcha xunrezliklar ma'rifatsizlik oqibati ekani, ilm-ma'rifat har doim jabr va zulmning qarshisidagi kuch ekani aytiladi. Yana muallif niyatini to'g'ri tushunish uchun bobga berilgan "Qabriston" ("Mozorlik") sarlavhasiga e'tibor bersak, qabriston – o'liklar mamlakati, ya'ni ma'rifat maskani emas. Ma'rifat esa tiriklik va mazmunli hayot uchun kerak.

Mehmet Akif bu o'rinda qabristonni ziyorat qilish odobini emas, balki qabr ma'rifati, ya'ni oxiratni o'ylab ish tutish zarurligini aytadi. Oxiratni bilgan insonga

zulum qilmaydi, qabr azobini uni ko‘rmay his qilgan odam jaholatga bormaydi qabilidagi hikmatlarni asarning alohida boblari orqali tasavvur qilamiz.

*Cevharin toprak deęil, pek bařka bir ma'den senin.*

*Ah bilmezler ki üstünden geęerlerken senin,*

*Bin dimaęın lübbüdüir her zerre hakinden senin.*

*Öyle feyyaz, ey zemin-i ma'rifet, mayen senin:*

*Saye - gahindan ıkarken ruh olur her ten senin! (S.45)*

Tarjimasi:

*Javharing tuproq emas, butkul boshqa ma'dan sening,*

*Oh, bilmaslarki ustindan yurib o'tisharkan sening,*

*Mingta miyyang ozniki, har zarra hokingdan sening,*

*Shunday fayzli, ey ma'rifat sayyorasi, moyang sening:*

*Soyagohingdan chiqarkan ruh bo'lur har tan sening! (B.44)*

Qabriston tasvirida aytilgan bu so‘zlar, ma’rifat sayyorasi bo‘lgan kishilik ruhiy dunyosiga tegishli. Tuproq – xok faqat uni bosib o‘tish uchun yaratilmagan, bu tuproqdan insonning asosi olingan. Tuproqdan tuproqqacha bo‘lgan hayot orasi esa kishiga ma’rifat sayyorasi bo‘lishi kerak. U hayot davrini shunday o‘tkazishi kerakki, so‘ng zamonda o‘zi qilgan gunohu azoblari uchun javobgarlikni his qilishi kerak. Nafaqat o‘zini, balki yaqinlarini hijolatga, uyatga qoldirmaslik uchun ham kishi ma’rifatni o‘zidan yiroq tutmasligi kerak.

Epopeyaninig uchinchi kitobi “Haqning saslari” deb nomlanadi va unda muallif kimki, ma’rifatni o‘ziga oshno tutsa, kimki doimo iymon va insofni asosiy o‘lchov deb bilsa, kimki Yaratganning ma’rifatidan xabar topsa, u Haqning ovozini eshitishi mumkinligi aytiladi.

Shoirning nidosi o‘tkir sadolar bilan Haqqa yetib borgusi ekanini shu satrlardan bilamiz:

*Şu sessiz kubbenin altında insandan eser yokmuş!  
Diyorduk: “bir buçuk milyar!” Meğer tek bir nefer yokmuş!  
Bu hissiz toprağın üstünde mazlûmîne yer yokmuş!  
Adâlet şöyle dursun, böyle bir şeyden haber yokmuş!  
Bütün boşlukmuş insanlık; ne istersen, meğer yokmuş! (S.192)*

Tarjimasi:

*Bu sassiz to‘qin ostida bir insondan asar yo‘qdir!  
Deyardik: “Bir yarim milliard” magar toq bir nafar yo‘qdir!  
Bu hissiz tuproq ustida mazlumingga kamar yo‘qdir!  
Adolat unda tursun, unday narsadan xabar yo‘qdir!  
Butun bo‘shliqdir insonlik, na istarsang, magar yo‘qdir! (B.164)*

Demak, Mehmet Akif Ersoyning “Safohat” asaridagi bosh masalalardan biri maktab va maorif muammosi ekanki, uning hal etilishi boshqa sohalarda ham o‘zgarishlar bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Lekin bu sohada zo‘rlilik, zo‘ravonlik, istibdod bilan ilmiy muammolarni yechish mumkin emas. Ularning yechimi esa ma’naviyat va ma’rifat masalalarining mamlakat ozodligi, uning kishilarining hurligi va adolatli boshharuv bilan bog‘liqdir.

## **2. “Safohat” asarining sujet va kompozitsiyon tarkibi**

Sujet va kompozisiya masalalari badiiy asar tarkibida uchrashi lozim bo‘lgan asosiy komponentlardan iborat bo‘lib, bu so‘zlar garchi G‘arbiy Yevropa tillaridan qabul qilib olingan bo‘lsa ham har bir asarning ichki mundarijasida muhim o‘rin tutadi.

Zamonaviy adabiyotshunoslik qarashlarini o‘zida ifoda qilgan A.Ulug‘ovning “Adabiyotshunoslik nazariyasi” kitobida sujet haqida shunday fikrlar bayon qilingan: “Sujet fransuzcha “narsa, mazmun, mavzu” degan ma’noni bildiradi. Asar mazmunini tashkil etadigan, qahramonlar o‘rtasidagi aloqa, munosabatlar tizimi sujetdir. Sujet badiiy shaklning eng muhim unsurlaridan biri bo‘lib, u

asardagi bir-biri bilan uzviy bog‘liq voqealar tizimidir. Lirik asarlarda esa o‘y-fikir, his-kechinmalar rivoji sujetdir. Adabiyotshunoslikda sujetlar ikkiga: voqeaband va voqeaband bo‘lmagan sujetga ajratiladi. Sujetning birlamchi funksiyasi asarda diqqat markaziga qo‘yilgan muammoni badiiy tadqiq etishga imkon beradigan hayot materialini uyushtirib berishdir. Sujet personajlarning harakati, faoliyat, o‘z maqsadi yo‘lidagi intilishi, kurashidan tarkib topadi. Sujetning ikki tipi: tashqi harakat dinamikasiga asoslangan hamda ichki xarakter dinamikasiga asoslangan turi mavjud. Voqealarning o‘zaro munosabatiga ko‘ra sujet xronikal va konsentrik turlarga bo‘linadi”<sup>42</sup>.

Agar “Safohat” asarini ayni mana shu maqsad bilan o‘rgangadigan bo‘lsak, dastlabki sahifalardan oq asar bir umumiy voqeaga yoki o‘zaro tutashgan voqealarga ega emasligini kuzatish mumkin. Bu degani asarda sujet yo‘qligi emas, balki uning o‘ziga xos murakkab tarzda kechishidir. Asar 1918-yildan 1933- yilga qadar kechgan voqealarni o‘z ichiga olsa-da, uning yetti qismi mana shunday davriy tartibda nashr etilgan bo‘lsa ham, buni xronikal sujet asosida yozilgan deb bo‘lmaydi. Masalan, nashr jarayonida asarning yetti qismi quyidagi nomlarda nashr bo‘lganini kuzatamiz:

1. “Safohat”, 1911, 1918 va 1928-yillar.

2. “Sulaymoniya kursida”, 1912, 1916, 1918 va 1928-yillarda qayta nashr etilgan.

3. “Haqning saslari”, 1913, 1918 va 1928-yillarda nashr bo‘lgan.

4. “Fotih kurslarida”, 1914, 1924-yillarda bosilgan.

5. “Xotiralar”, 1917, 1918 va 1928-yillarda bosilgan.

6. “Osim”, 1924, 1928-yillarda bosilgan.

7. “Soyalar”, 1933-yilda chop etilgan.

Lekin asar voqealari garchi yosh Mehmetning mahalla maktabiga borish voqeasidan boshlangan bo‘lsa ham, u izchil ravishda yillar ketma-ketligida davom etmagan. Asar kichik muqaddimadan boshlanadi:

---

<sup>42</sup> *Ulug‘ov A.* Adabiyotshunoslik nazariyasi. T., 2018. — B. 76.

*Bana sor sevgili kaar', sana ben söyliyeyim,  
Ne hüviyyette şu karşına duran eş'ârım:  
Bir yığın söz ki, samîmiyyeti ancak hüneri;  
Ne tasannu' bilirim, çünkü, ne san'atkârım. (S.3)*

Tarjimasi:

*Ey, sevikli kitobxon, so'ra, aytay izhorim,  
Qanday asosga ega qarshingdagi ash'orim:  
Bir yig'ma so'zki, faqat samimiyluk hunari,  
Ko'p bezakni bilmayman, chunki, yo'q iqtidorim. (B.20)*

So'ngra esa "Fotih jome'i" nomli mustaqil she'r keladi. Go'yoki she'r avvalgi muqaddimaga bog'lanmaganday ko'rinsa ham, uning so'nggidagi "o'qi, savod chiqar!" so'zlariga jome' masjidining mahoratli tasviri qo'shiladi. Bu o'rinda hech bir voqea yo'q, lekin muallif o'quvchini bo'lg'usi ma'rifatga doir qarashlariga tayyorlayotganday bo'ladi. Mana shu sarlavha ostidagi she'r bilan Ziroat maktabidagi bolaning kasallanishi voqeasi asarga ekspozisiya vazifasini bajaradi. Chunki ekspozisiya asarda Ziddiyat yuzaga kelgunga qadar qahramonlar qiyofasini shakllantirgan sharoitning va unda qaror topgan xarakter xususiyatlarining tasviridir. Ekspozisiya asarda ishtirok etuvchi shaxslarning xatti-harakatlarini dalillash vazifasini o'taydi, hayotlari, o'sish, ulg'ayishlari to'g'risidagi ma'lumotlar asarning turli o'rinlarida beriladi. Agar asar sujetida ekspozisiyadan so'ng tugun, voqealar rivoji, kulminasiya va yechim kabi sujet elementlari uchrashi mumkin bo'lsa, bu o'rinda tugun va yechimlar bir necha, chunki bu ko'pqirrali asar bo'lib, undagi har bir kichik voqea o'ziga xos tugunga va yechimga ega. Masalan, "Tirikchilik balosi" sarlavhali she'r hayotning turli yo'llarida qiynalib yashayotgan yosh Mehmetning sargardonliklarini bayon etsa, uning birgina madrasaga borishi bilan bu sarsongarchiliklar tugab qolmaydi. Aksincha, qahramon oldida yangi "tugun"lar – muaamolar paydo bo'ladiki, asarda bu kabi tugun-yechimlar munosabati juda ko'p bo'lib, ular salmoqli xarakterga ega. Ayrim

o‘rinlarda tugun paydo bo‘lishi kuzatilsa-da, o‘sha voqeaning yechimi yo‘q. Bu kabi bir necha voqealarning yechimi asar finalida ko‘zga tashlanadi. Mana shu kabi kuzatishlar asarning xronikal yo‘nalishda, ya’ni voqealar davr ketma-ketligida emas, balki konsentrik tarzda ular o‘zaro sabab-oqibat yo‘li bilan bog‘langanini aniqlash mumkin.

“Safohat”ning ikkinchi kitobi “Sulaymoniya kursisi” deb nomlanadi, u 1912, 1916, 1918 va 1928-yillarda qayta nashr etilgan bo‘lsa ham, voqealar, asosan, XIX asrning so‘nggi choragida yuz beradi. Bu bo‘limdagi dastlabki she‘rlar ham o‘zaro voqeaband bo‘lganday ko‘rinsa-da, ularning orasiga “lirik chekinish” tarzida kiritilgan “Rusiyada”, “Matbaa”, “Turkistonga harakat” sarlavhali qisqa she‘rlar bor. Lekin bu chekinishlar ham, asosan, bir voqeali. Unda qahramonning o‘tmish sayohati davomidagi bir voqea yoki biror bir kichik detal eslanadi. Masalan, “Turkistonga harakat” nomli she‘rdagi voqealarni kuzataylik. Shahardagi o‘zgarishlar tufayli bolalar ishsiz qoladi, kim qaerlarnidir orzu qiladi. Navbat Mehmetga yetganda, u ochiq qilib, Turkiston haqida so‘zlaydi:

*Yolu tuttum yalnız doğruca Türkistan’a.  
Gece gündüz yürüdüm bulmak için Taskent’i;  
Geçtiğim yerleri ta’dâda mahal yok şimdi.  
Uzanıp sonar Buhârâ’ya, Semerkand’e kadar;  
Eski dünyâda bakındım ki ne âlemler var? (S.168)*

Tarjimasi:

*Ochiq aytdim ketmagim bir o‘zim Turkistonga.  
Ketdim, kunu tun yurib, Toshkentga yo‘l qaratdim,  
Qayerlardan o‘tganim sanashga yo‘q fursatim.  
Buxoro-yu Samarqand hammasin kezdim bir-bir.  
Ko‘ray eski dunyoni, bunda muhitlar nadir? (B.143)*

Mehmet Akifning tarjimaiyati holidan ma’lum bo‘lishicha, u Turkistonda bo‘lmagan. Lekin XX asr boshlarida Rusiya istibdodi ostidagi Turkistondagi

hayotdan o‘zi rahbarlik qilayotgan “Sirotu-l-mustaqim” jurnali orqali xabardor bo‘lgan. Bu jurnal O‘rta Osiyoda kechgan voqealarni muntazam suratda yoritib borgan. Hatto G‘iyosuddin Hasaniy ismli “Buxoroyi sharif” gazetasining adabiy xodimi bir vaqtning o‘zida “Sirotu-l-mustaqim” uchun o‘nlab materiallar tayyorlab nashr ettirgan.<sup>43</sup>

Shu bilan birga ayni 1910-14- yillarda Istanbulga Buxorodan tahsil olish uchun kelgan yoshlar orasida Fitrat kabi ochiq qalbli, ilmga tashna adiblar bo‘lgan. Hatto Fitratning ayni mana shu nashrda e‘lon qilingan maqolalarida, xususan, “Tar‘rufi muslimin” gazetasidagi “Buxoro vaziri Nasrullohbey Parvonachi afandi hazratlarina ochiq maktub” asarida o‘qigan bo‘lishi shubhasiz.

Turk olimi Yusuf Avji “Fitrat va asarlari” kitobida Fitratning Istanbuldalik faoliyatiga alohida e‘tibor qaratib, uni Buxoro hayoti bilan tanishtirib brogan muallif ekanini yozgah edi<sup>44</sup>.

Chunki ayni maktubda Fitrat domla “Aniqdirki, hech qaysi millat hech bir zamonda bizda bo‘lganidek, yurti xaroblik, xalqi falokat, ayonlari pastkashlik, idora ahli fasod, zolimlarning qon so‘rishi, ajnabiylar kalakalari, istiqbolining mushkulligi kabi illatlarga muhtalo bo‘lmagan!”<sup>45</sup> (Bundan tashhari, Fitrat bilan Mehmet Akif Istanbuldagi uchrashuvini dalillaydigan manbalar talaygina<sup>46</sup>.)

Mehmet Akifning o‘zi hali borib ko‘rmagan Buxoroyi sharif haqidagi quyidagi misralari uning asari qaysidir ma‘noda Fitrat qarashlari bilan uyg‘un ekanini ko‘rsatadi:

*O Buhârâ! O mübârek, o muazzam toprak!  
Zilletin koynuna girmiş uyuyor mustağrak!  
Ibn-i Sinâ'ları yüzlerce doğurmuş iklîm,  
Tek çocuk vermiyor âgûşna ilimin, ne akîm! (S.168)*

<sup>43</sup> Bu haqda qarang: Komatsu H. yūzyıl başlarında Orta Asyada türkçülük ve Devrim hareketleri. Ankara: Turhan Kitabevi Yayınları, 1993. — S. 36.

<sup>44</sup> Yusuf Avci. Fitrat ve eserleri. Ankara, 1997. — S.9

<sup>45</sup> Фитрат. Асарлар. 3-жилд. Т.: Маънавият, 2003. — Б. 226.

<sup>46</sup> Qarang: Болтабоев Х. Фитратнинг Истанбул даврини тавсифловчи манбалар // Фитрат ва жадидчилик. Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. — Б. 210.

Tarjimasi:

*O Buxoro! Muborak, eh muazzam tuproqlar!  
Uyqularga muhtalo, so'nib yotar chiroqlar...  
Yuzlab Ibn Sinolar tuqqan ajoyib iqlim,  
Qisirmisan, bir bolang fanga bermaydi aqlin! (B. 143)*

“Dunyoning rasadxonasi bo‘lgan Samarqand” mana shunday aftoda holda qolib ketmasligi kerakligini uqtidirish bilan birga Mehmet Akif turkistonlik yoshlarga zo‘r umid bilan qaraydi, bunday holat o‘zgarishiga, kelajakda Turkiston obod va ozod bo‘lishiga ishonadi:

*Bir gün olup parlıyacaktır elbet.  
O zaman işte şu toprak yeniden işlenerek,  
Bu filizler gibi binlerce fidan besliyecek! (S. 169)*

Tarjimasi:

Bir kun yorug‘lik keladi o‘zi albat.  
O‘shanda mana shu yer yangitdan tiklanajak,  
Bu nihollar minglarcha daraxt bo‘lib unajak! (B. 144)

Mehmet Akifning bunday Sharq o‘lkalari bo‘ylab qilgan sayohati davomida naqafat Turkiston, balki Chin va Manchjuriya, Yaponiya va Hindistondan so‘ng muallifni yana “Turkiston xayoli” band qiladi. Xuddi yuqoridagi kabi Mehmet Akif bu o‘lkalarda bo‘lganmi? Degan savol tug‘ilishi tabiiy.

Muallifning tarjimai holiga nazar tashlaganda, u Misr sayohatiga borarkan, ayni shu Sharq o‘lkalarini kezkani ma’lum bo‘ladi. Biroq ushbu voqealar bitilgan 1912-yilda emas, keyinroq Sharqqa sayohat qilgan. Mehmet Akifning bunday adabiy sayohati asosida atoqli tatar adibi Abdurashid Ibrohimbekning “Olami islom” asaridan xabardor ekani ma’lum bo‘ladi<sup>47</sup>. Chunki o‘z uyidan “12 rubl Rossiya puli bilan chiqib ketgan sayyoh” (bu haqda Fitratning Istanbulda chop

---

<sup>47</sup> Abdürreşid İbrahim. 20. Asrın başlarında İslam Dünyası ve Japonya’da İslamiyet. Cild. 1, İstanbul: 1987. S. 386.

etilgan “Munozara” asarida ma’ulmot berib, uning ma’rifatchilik faoliyatini namuna qilib ko’rsatgan edi<sup>48</sup>)ning butun Sharq o’lkalarini kezib, oxirida Yaponiyaga kelib, bir masjid qurdirib, yuz mingdan ortiq yaponlarni haqqi mubini islom diniga da’vat qilgani 1910-yillarda tillarda doston bo’lib yurar edi (Abdurashid Ibrohimbek qurdirgan masjid Tokioda hozir ham saqlanadi).

Mehmet Akif asarining keyingi qismlarida yana turk hayoti masalalari, u yerdagi ma’rifat va madaniyat qay ahvolda ekani, uni yuksaltirish usullari haqida so’z boradi. Bu jihatdan “Haqqning saslari” va “Fotih kurslarida” nomli kitoblari xarakterli. “Safohat” asarining sujet yo’nalishida “Xotiralar” deb nomlangan 5-kitob alohida o’rin tutadi. Bu bo’lim asardagi avvalgi voqealar bilan ham bog’lanmaydi, keyinda kelgan bo’limlarga ham turtki bermaydi, balki o’ziga xos tarzda “kiritma epizod” mohiyatini anglatadi. Bo’limning asosida “Berlin xotiralari” she’rlar turkumi tursa-da, bunga qadar muallifning “Uyg’on!” she’rlari o’zining da’vatkorligi bilan e’tibor tortadi. Unda shoir “Ey, ko’hna Sharq!” deya murojaat qilib, “endi qimirlashni niyat qil, “qo’rhamanki, erta-indin G’arbning niyati – boshingga la’natlar” keltirmasin, deb havfsiraydi. She’r so’ngidagi

*Hakk-ı hayatın daha çiğnenmeden,  
Kan dökerek almasıydın merd isen.  
Çünkü bugün ortada hak sahibi,  
Bir kişidir: “Hakkımı vermem!” diyen. (S.304)*

Tarjimasi:

*Yashamoq haqqini tirmanib, arang,  
Qon to’kib olishing kerak, mard bo’lsang.  
Chunki yashash haqqin ololar bugun  
Faqatgina “Haqqim bermayman!” degan. (B. 166)*

---

<sup>48</sup> Фитрат. Ҳиндистонда бир фаранги ила бухороли мударриснинг жаид мактаблари хусусинда қилган Мунозараси / Фитрат. Танланган асарлар. 1-жилд. Т.: Маънавият, 2000. — Б. 55.

bandi o‘zbek adibi Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Haq olinur, berilmas!” kabi g‘oyalariga hamohangligi bilan o‘zbek o‘quvchilari yodida qoladi<sup>49</sup>.

“Xotiralar” orasida eng ta’sirli bo‘lim “Berlin xotiralari” deb nomlangan turkum she’rlardir. Shuni alohida esga olish kerakki, garchi muallif Berlinda 1910-yillarning boshida bo‘lgan bo‘lsa-da, ayni xotiralar 1915-yilda Birinchi jahon urushi eng qizg‘in pallaga kirgan bir vaqtda yozilgan. Shuning uchun ham bu turkum she’rlardan urush davrining o‘q ovozlari, jahon urushidagi qirg‘inklar baralla “eshitilib” turadi:

*Değil mi cephemizin sînesinde îman bir  
Sevinme bir, acı bir, gaaye aynı, vicdan bir  
Değil mi sînede birdir vuran yürek... Yılmaz!  
Cihan yıkılsa, emîn ol, bu cephe sarsılmaz!  
Nasıl ki yarmadan âfâkı pâre pâre düşer,  
Hadâyı bağmak için saldıran cünûn-u beşer;*

Tarjimasi:

*Jabhamiz siynasida tirik kuchli imon bir,  
Sevinma bir, og‘riq bir, g‘oya ayni, vijdon bir;  
Siynada urib turgan yurak ham bir... yengilmas!  
Jahon yiqilsa, amin bo‘l, bu jabha hech sochilmas!  
Ufqni tilkalamay jon berishga kim shoshar,  
Ey Xudoni bo‘g‘moqqa otilgan telba bashar?  
Haqiqat nuri bilan jang qilsang vahm ichra  
G‘ayrat o‘ti oqibat seni o‘xshatib yanchar. (B. 167)*

She’rning mana shu voqealar bayoni bilan bog‘liklikda berilishi, bir tomondan, shoirning Birinchi jahon urushiga munosabatini bildirsa, ikkinchi jihatdan, yuksak pafos bilan tinchlikni kuylashi, unga erishish har bir xalqning ezgu niyati ekanini ko‘rsatib bera olganidir.

---

<sup>49</sup> Бехбудий М. Танланган асарлар. 1-2-жилд. Т.: Akademnashr, 2018. 1.ж. с. 506, 2.ж.с.308.

“Safohat” asarining 1920-30- yillarga tegishli “Osim” va “Soyalar” sarlavhali qismlari ko‘p jildli bu muhtasham asarning o‘ziga xos yechimidir. Chunki asardan ham maqsad hayotdagi “soya” – “ko‘lka”larni ko‘rsatish bo‘lib, ularni yengib chiqqandagina inson taraqqiyot sari yuz burishi mumkinligini ko‘rsatishdan iboratdir. “Bulbul” sarlavhali she’rini Mehmet Akif tomonidan aruz vaznida yozilgan go‘zal bir g‘azal, shu bilan birga uni ushbu kitobning xotimasi sifatida qabul qilish mumkin:

*Bütün dünyaya küskündüm, dün akşam pek bunalmıştım;  
Nihâyet, bir zaman kırlarda gezmiş, köyde kalmıştım.*

*Ne haybettir ki: vahdet-gâhı dînin devrilip, taş taş,  
Sürünsün şimdi milyonlarca me’vasız kalan dindaş!*

*Yıkılmış hânümânlar yerde işkenceyle kıvransın;  
Serilmiş gövdeler, binlerce, yüzbinlerce doğransın! (S.473-74)*

Tarjimasi:

*Butun dunyoga g‘ashlandim, kecha shom g‘amga tolgandim,  
Nihoyat, bir mahal qirlarda kezgan, ko‘yda qolgandim...*

*Bu ne zo‘rlik: dinimizning vahdatgohin buzish tosh-tosh,  
Qayga borsin milyon-milyon topinoqsiz qolgan dindosh?*

*Yiqilgan xonumonlar yerda ingrab buralsinmi?  
Yoyilgan gavdalar minglab va yuzminglab to‘g‘ralsinmi? (B.170-71)*

She’rda “bir zulumot” tasvirlanar ekan, bir tovushsiz, yo‘lsiz, nursiz, butun xilqatning behol yotishi “Suri mashhar”ni, yani jbratda qiyomat kunida Isrofil sur chalishidan avvalgi holatni eslatadi. Lekin shoir nekbinlik bilan

*Bügün bir yemişil vâdi, yarın bir kıpkızıl gülşen,  
Gezersin, hânümânın şen, için şen, kâinatın şen (S.473)*

Tarjimasi:

*Bugun bir yam-yashil vodi, ertang bir qip-qizil gulzor,  
Kezarsan shod, uying obod, bir xushchaqchaq koinoting bor (B. 170)*

deb yazarkan, shoir yurt kelajagini aniq tasavvur qiladi. Chunki millatning ruhi tetik, u qoʻrquv bilmaydi, unda uzoqlarga parvoz qila oladigan shiddat bor. Bu dunyoda har bir xalqning ezgu niyati erk istagi, Vatan ozodligidir. Bu yolda kurashgan Salohiddin va Ayyubiy kabi millat qahramonlari tilga olinib, asrlar davomida dunyoda shavkat ramzi boʻlgan Usmonlilarning XX asr boshlaridagi holidn qutqaruvchi yetuk yoʻlboshchilarni yoʻqlaydi.

Garchi sheʼr jumhuriyat mustaqilligi uchun janglarda halok boʻlgan oʻgʻli Basri beyga bagʻishlangan boʻlsa-da, uning zamirida Birinchi jahon urushidan natijasiz chiqqan “Gʻarb olbostilari” (Fitrat iborasi)ning Sharqqa hujum qilib, inglizlar tomonidan Makkayi mukarrama va Madinayi munavvaraning toʻpga tutilishini faryod bilan tasvirlaydi. Musulmon dunyosini larzaga solgan ushbu voqealar haqida oʻnlab asarlar, jumladan, Fitratning “Yigʻla, islom!” nomli publisistik kitobi ham chop etilgan edi. Ayni mana shu kabi holatni ushbu sheʼrda ham kuzatamiz:

*Ne haybettir ki : vahdet-gâhu dînin devrilip, taş taş  
Sürünsün şimdi milyonlarca me'vâsız kalan dindaş! (S.474)*

Tarjimasi:

*Bu ne zoʻrlik: dinimizning vahdatgohin buzish tosh-tosh,  
Qayga borsin milyon-milyon topinoqsiz qolgan dindosh? (B. 171)*

Muallif xuddi sherning boshlanisidagi kabi asar soʻngida ham bulbulga murojaat qiladi va xulosada “sening haqqing emas motam” deya unga eʼtiroz qiladi.

“Safohat” asarining sujet yo‘nalishida kuzatgan voqealar, kishilar va taqdirlar asar kompozitsiyasida ham muhim o‘rin tutadi. Ma’lumki, “Kompozitsiya lotincha “compositio” so‘z bo‘lib, “tuzilish, qurilish, tarkib” demakdir. Badiiy asar kompozitsiyasiga: “badiiy asar qismlari, detallar, badiiy tasvir vositalarining ma’lum maqsad asosida muayyan tartibda joylashtirilishi” deb ta’rif beriladi “Adabiyotshunoslik nazariyasi”da.<sup>50</sup> Bu o‘rinda kompozitsiyada barcha qismlar, detallar, tasvir vositalari va obrazlar yagona maqsad yo‘lida birlashtirilishi”, kompozitsiyaning bu qismlarni tutashtiruvchi qonuniyat ekanini nazarda tutsak, “Safohat” asari tarkiban o‘ta murakkab, bo‘lib, uning tarkibidagi 7 kitob, 108 ta she’r, yuzlab bizga notanish qahramonlar, turli xil janr va poetik vositalar yagona maqsad – ma’rifatning tantanasi uchun birlashtirilganini ko‘rish mumkin. Agar bu she’rlarning janr xususiyatlariga nazar tashlaganda ham mumtoz (devon) she’riyatidagi qasida, g‘azal, qit’a, ruboiy janrlari o‘z vaznlarida (ya’ni aruz vaznida) berilgani, undan tashqari, asarning asosiy bayon yo‘li esa, masnaviy janri talablari asosida yozilganini qayd etamiz. Masnaviy janrida har bir baytdagi oxirgi so‘zlar o‘zaro qofiyalanishi natijasida keng epik bayonga imkon yaratilganini ham kuzatamiz.

Mutaxassislarning hisobiga ko‘ra, asarning umumiy hajmi 11420 misradan iborat, bu misralarning ifodasida nafaqat aruz vazni qoidalari, balki barmoq vazniga o‘tayotgan paytdagi o‘ziga xosliklarni, hatto ayrim she’rlar sarbast – erkin usulda ham bayon qilinsa ham, asar kompozitsiyasiga putur yetmaganini ko‘ramiz.

Badiiy asarning qurilishida yozuvchi ilgari surgan g‘oya asosiy kuch bo‘lib, undagi har bir bob, boblardagi har bir manzara ham o‘z markaziga ega bo‘lishi bilan birga umumiy g‘oyaga bo‘ysunadi. Ana shundagina adabiy asar izchillikka ega bo‘lishi mumkin. Kompozitsiyaning yana muhim jihatlaridan biri, undagi voqea va hodisalar, obraz va tasvirlarning muvofiqligi masalasidir. Me’yor va muvofiqlik badiiy asarning mohiyatini bildiruvchi asosiy poetik unusurlardan ekani nazariy kitoblarda bayon qilingan.

---

<sup>50</sup> *Ulug‘ov A.* Adabiyotshunoslik nazariyasi. T., 2018. — B. 60.

Bu o‘rinda tafsilotlar, epizodlar va manzaralar, voqealar tasviri va obrazlarning asar markaziga, yozuvchi maqsadiga muvofiqligi ko‘zda tutiladi.

Nazariy jihatdan qarajak, asar sujetiga daxlsizday bo‘lib ko‘ringan ayrim kompozision vositalar ham asar qurilishida o‘z o‘rniga ega bo‘ladi. Bunday kompozision vositalar qatoriga lirik chekinish, kiritma voqea, badiiy qoliplash, epigraf kabi sujetdan tashqari hodisalar kiradi. Bu kompozision vositalarning barchasi asar g‘oyasini ochishda muayyan rol o‘ynaydi, mana shu jihati bilan asarning umumiy g‘oyasiga bo‘ysunadi.

Badiiy asarda yozuvchining bevosita o‘z fikr-tuyg‘ularini ifodalashi *lirik chekinish* deb ataladi. Bunday chekinishlar, asosan, epik asarlarda ko‘proq bo‘ladi, lirik asarlar esa, butunicha shoir kechinmalarining ifodasi hisoblanadi.<sup>51</sup> Ko‘pincha, muallif lirik chekinish yordamida tasvirlayotgan materialiga o‘z munosabatini ifoda qiladi. Hatto ayrim o‘rinlarda voqealar bayonini to‘xtatib qo‘yib, muallifning bevosita kitobxonga yuzlanganini kuzatishimiz mumkin. Yuqorida lirik chekinishlardan ba‘zilari, ya‘ni bir she‘r tarkibidagi chekinishlar xususida fikr yuritildi.

“Safohat” asari kompozisijasiga xos umumiy jihat shunday iboratki, uning tarkibidagi ayrim she‘rlaro to‘g‘ridan-to‘g‘ri lirik chekinish vazifasini o‘taydi. Birinchi kitobdagi “Hol bayoni”, “Salima” “Jahon yurti”, “Mahalla kafesi” kabi she‘rlarni, ikkinchi kitobdagi “Istanbulga qaytish”, “Duo” she‘rlarini, uchinchi kitobdagi Qur‘oni karimning ayrim suralarida musulmonlarga qarata aytilgan xitoblarni she‘rga solib, “Iloho...” deya murojaatlarni shunday lirik chekinishlar sirasiga kiritish mumkin. “Haqning saslari” saslari turkumidan:

*Ïlâhî, “Melik-el-mülküm” diyorsun... Doğru, âmennâ.*

*Hakîkî bir tasarruf var mıdır insane için? Asla!*

*Eğer almışsa bir millet, edip bir mülkü istilâ;*

---

<sup>51</sup> Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. Т., 2008. — Б. 91.

*Eğer vermişse bir millet bütün bir mülkü bi-pervâ;  
Alan Sensin, Veren Sensin, Senin hükümündedir dünyâ. (S.192)*

Tarjimasi:

*Iloho, “Molik-al-mulkam” deding-ku... To‘g‘ri, omanno.  
Haqiqiy bir tasarruf bormidir inson uchun? Aslo!  
Agar olgan bo‘lsa bir millat, etib bir mulkni istilo,  
Agar bergan bo‘lsa millat butun bir mulkni beparvo,  
Olgan Sensan, bergan Sensan, Sening hukmingdadir dunyo. (B.163)*

Bunday lirik chekinishlar janr e‘tibori bilan mumtoz she‘riyatdagi munojotlarni ham eslatadi.

Adabiy asardagi asosiy voqealar tizimiga bevosita aloqador bo‘lmagan, lekin g‘oyaviy maqsadga bo‘ysundirilgan sujetdan tashqaridagi voqealar *kiritma epizod* deb yuritiladi. Ular, ko‘pincha, asarga mazmunni chuqurlashtirish, xarakterlar rivojini dalillash va ifodalanayotgan g‘oyani kitobxonga aniqroq yetib borishini ta‘minlash maqsadida kiritiladi<sup>52</sup>. “Safohat” kompozitsiyasi shunday tarkiblanganki, undagi 30 dan ortiq she‘rlarda mana shunday kiritma voqealar bayon qilingan. Ayniqsa, asarning “Xotiralar” deb nomlangan qismini butunisicha kiritma epizod sifatida talqin qilish mumkin.

“Safohat”dagi juda ko‘p she‘rlar epigraf bilan boshlangan. Ma‘lumki, *epigraf* asar boshida yoki uning bo‘lim va qismlarining boshlanishida ayrim maqol, hikmatli so‘z, xabar yoki bag‘ishlov tarzida jumlar yoki she‘riy baytlar berishdan iborat bo‘lib, u bir yoki ikki jumla bilan bayon etiladi. Asar sarlavhasi kabi epigraflar ham asar va uning qismlaridagi ma‘noni tushunishga yordam beradi, asarning g‘oyasi sari kitobxonni yo‘naltiradi.

“Safohat”ning birinchi kitobiga “Bolam Mehmet Aliga sevgim yodgoridir” bag‘ishlov satrlari bor. Shu birinchi kitobdagi “Tirikchilik balosi” she‘riga Shayx Sa‘diyning

---

<sup>52</sup> Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. Т., 2008. — Б. 94.

*Yozda yeyim, qishda kiyim dardida*

*Sarf bo'linib topdi umr intiho*

bayti epigraf qilib olingan. Shu baytning o'ziyoq tirikchilik ko'yida aziz umrini o'tkazib, ma'rifatdan yiroqlashib qolgan kishilarning qismatiga bir ishora tarzida berilgan.

Epigrafidagi hikmat she'r davomida ochilib, to'ldirilib boriladi. Nihoyat, tiriklik mazmunini tirikchilikka aylantirganlar, umrini ishrat dardi bilan o'tkazganlarga harata aytilgan xulosa so'zlar, tiriklik ma'nosi Xoliq (Yaratuvchi) maqsadi neligini, ya'ni u insoniyatni nima maqsadda yaratganini omi bandalarga tushuntirmoq lozimki, ular o'zlarini ma'rifatda Yaratganning hukmi bo'yicha U niyat qilgan maqsadlarni amalga oshiruvchilardir, degan xulosani o'qiymiz. Ko'rinadiki, bu xulosaga kelishda she'r mazmuni bilan birga, uning sarlavhasi va epigrafi ham kitobxonga yordam beradi.

Badiiy qoliplash asar kompozitsiyasida ko'p zamonlardan beri sinalgan vositalardan hisoblanadi.

“Ming bir kecha” ertaklaridagi Shahrizoda qismati, Alisher Navoiyning “Sab'ai sayyor” dostonidagi “Bahrom va Dilorom qissasi mana shunday qoliplovchi vositalar sirasiga kiradi. Tasvirlanayotgan xarakterlar va hodisalar mohiyatini yaqqolroq ochish maqsadida muallif bunday kompozision vositaga murojaat qiladi. Biroq Mehmet Akif asarida yagona qoliplovchi hikoya uchramaydi. Sababi muallif qoliblovchilik rolini asarning g'oyasiga “topshiradi”, uning mohiyatidan kelib chiqib, agar mumkin bo'lsa, asardagi MA'RIFAT tushunchasini mana shunday qoliplovchi g'oya sifatida talqin qilish mumkin. Mehmet Akif “Safohat” asarining sujet va kompozision xususiyatlarini o'rgangan mutaxassislar Sulaymon Nazif, Mihat Jemal Kuntay, Emin Aman va boshqalar shunday xulosaga kelishgan. “Mehmet Akif she'ri jonli hayot sahnasida qolishga haqlidir. Uning she'rlari orqali bir teatr asari yoki bir romandan ortiq voqealar qalamga olingan. Mehmet Akif o'z davri voqealarini yuksak san'atkorlik bilan original bir shaklga solgan. Mehmet Akifning she'rlari yeti kitobdan iborat asar

qilib belgilangan. “Safomat”ning boshlanishi bo‘lgan birinchi kitob 1911-yilga tegishlidir. Bu kitob nomlanishidan kelib chiqqan holda o‘z mavzusiga ko‘ra, davr sahifalariga ishora qilinadi. Kitobning boshidagi she‘r shoirning adabiy qarashlarini ifoda qilib, kitob boshidagi she‘rlar “Tavhid yoki Faryod”, “Fotih jome’si” va “Hasta” bundan keyin keladigan mavzular uchun ham boshlang‘ich nuqta hisoblanadi”<sup>53</sup>.

Ushbu so‘zlar, bizningcha, asarning mavzu va g‘oyasi, sujet va kompozitsiyasi uchun ham xulosa qilishga asos beradi. Demak, asar nafaqat XX asr boshlari uchun, balki hamma davrlar uchun ham ahamiyatli sanalgan ma’rifatchilik g‘oyalaridan kelib chiqib sujet va kompozitsiyasi ishlab chiqilgan.

---

<sup>53</sup> Yeni Türk edebiyatı. El kitabı (1839-2000). Editör Dr. Ramazan Korkmaz. Ankara, 2006. — S. 210.

## **2-bob yuzasidan qisqacha xulosalar**

1. Mehmet Akif Erso‘y millatparvar adib, tajribali noshir va jurnalist, xalq dardini chuqur anglagan olim sifatida XX asr boshlarida turk ma‘naviy va madaniy hayotining barcha jabhalaridan faol ishtirok etdi. Bu faollik samarasi ijodida ham ko‘zga tashlanib, “Safohat” nomli ko‘p jildli (7 kitobdan iborat) asar yaratdi.

2. Mehmet Akif siyosiy arbob sifatida “Ittihad va taraqqiy” (“Birlik va taraqqiyot”), “Ganch usmonlilar” (“Yosh usmonlilar”) kabi jamiyatlarning faol ishtirokchisi bo‘ldi. Buning natijasida kuchli islohotchi darajasiga ko‘tarildi. Turkiya jumhuriyatining vujudga kelishida uning “Istiqlol marshi” she‘ri madhiya vazifasini bajarib, xalqlarni yagona jumhuriyat g‘oyasi asosiga birlashtirdi. Xuddi shu kabi adibning “Safohat” asari ham mana shu tarixiy voqealarni aks ettirganini kuzatish mumkin.

3. Mehmet Akif Erso‘y XX asr boshlaridagi hayotni tasvirlar ekan, maktablarning qarovsizligi, muayyan bir boshqarma tomonidan boshqarilmasligi, davlat nazoratiga olinmay, unda o‘qituvchining istagiga ko‘ra bilim berilishi kabi holatlarni ochiq bayon qiladi. Asarda maorifga tegishli voqealarni ko‘rsatish bilan ko‘z oldimizda bundan yuz yil avvalgi hayotni gavdalantirib bera oladi.

4. XX asr boshlaridagi ma‘naviy hayotni maktab va maorifsiz tasavvur qilib bo‘lmaganiday, ayni zamonda ma‘rifatning boshqa sohalari, jumladan, e‘tiqod va diniy masalalar, ma‘rifatning san‘at asariga munosabati kabi muammolar ham borki, ularni asar orqali o‘rganmay turib, “Safohat”ning g‘oyasi va asar muammosini to‘la tasavvur etib bo‘lmaydi. Asarning bosh g‘oyasi – ma‘rifat. Mana shu g‘oyadan kelib chiqib, muallif o‘z asarining shaklini belgilagan, murakkab nazm parchalaridan iborat bu asarda ma‘rifat har misrada ulug‘langanini ko‘ramiz.

5. Sujet va kompozisiya masalalari badiiy asar tarkibida uchrashi lozim bo‘lgan asosiy komponentlardan iborat bo‘lib, bu so‘zlar garchi G‘arbiy Yevropa tillaridan qabul qilib olingan bo‘lsa ham, har bir asarning ichki mundarijasida muhim o‘rin tutadi. Agar “Safohat” asarini ayni mana shu maqsad bilan o‘rgangadigan bo‘lsak, dastlabki sahifalardanoq asar bir umumiy voqeaga yoki

o‘zaro tutashgan voqealarga ega emasligini kuzatish mumkin. Bu degani asarda sujet yo‘qligi emas, balki uning o‘ziga xos murakkab tarzda kechishidir. Asar 1918-yildan 1933-yilga qadar kechgan voqealarni o‘z ichiga olsa-da, uning yetti qismi mana shunday davriy tartibda nashr etilgan bo‘lsa ham, buni xronikal sujet asosida yozilgan deb bo‘lmaydi.

6. “Safohat” asarining sujet yo‘nalishida kuzatgan voqealar, kishilar va taqdirlar asar kompozitsiyasida ham muhim o‘rin tutadi. “Safohat” asari tarkiban o‘ta murakkab, bo‘lib, uning tarkibidagi 7 kitob, 108 ta she‘r, yuzlab bizga notanish qahramonlar, turli xil janr va poetik vositalar yagona maqsad – ma‘rifatning tantanasi uchun birlashtirilganini ko‘rish mumkin. Agar bu she‘rlarning janr xususiyatlariga nazar tashlaganda ham mumtoz (devon) she‘riyatidagi qasida, g‘azal, qit‘a, masnaviy janrlari aruz vaznida berilgani, undan tashqari, asarning asosiy bayon yo‘li esa, masnaviy janri talablari asosida yozilganini qayd etish mumkin. Masnaviy janrida har bir baytdagi oxirgi so‘zlar o‘zaro qofiyalanishi natijasida keng epik bayonga imkon yaratilganini ham kuzatish mumkin.

7. Tasvirlanayotgan xarakterlar va hodisalar mohiyatini yaqqolroq ochish maqsadida muallif lirik chekinish, kiritma epizodlar, epigraf kabi kompozision vositalarga murojaat qiladi. Biroq Mehmet Akif asarida yagona qoliplovchi hikoya uchramaydi. Sababi muallif qoliblovchilik rolini asarning g‘oyasiga “topshiradi”, uning mohiyatidan kelib chiqib, agar mumkin bo‘lsa, asardagi MA‘RIFAT tushunchasini mana shunday qoliplovchi g‘oya sifatida talqin qilish mumkin.

### III BOB. “SAFAHAT” ASARINING BADIY XUSUSIYATLARI

#### 3.1. “Safihat” asarining janr xususiyatlari, vazni va qofiya tizimi

“Safihat” asarining badiiy xususiyatlari xususida qat’iy bir xulosaga kelishdan avval uning janr xususiyatlarini aniqlab olish lozim. Chunki asarning vazn va qofiya jihatlari uning janr xususiyatlari bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Masalan, asar tarkiban g‘azal, qit‘a, muxammas va masnaviy kabi janrlardan iborat bo‘lsa, ma’lumki, har bir janrning o‘z vazn va qofiya jihatlari alohida qaraladi. Chunki bu asar boshqa mumtoz epik asarlar kabi aruzning bir vaznida yozilgan asar emas. Asar 108 ta she’rdan iborat bo‘lgani uchun har bir she’r ayrim janr, vazn va qofiya tizimiga ega ekanligini kuzatish mumkin.

Mehmet Akif Erso‘y yashagan davrda Tanzimot davridan boshlangan “yangi” va “eski” she’r shakllari borasida tinimsiz bahslar ketgan. Ayrimlar ko‘hna g‘azal imkoniyatlaridan foydalanish, uning an‘analrini davom ettirish lozim desalar, ko‘pchilik “eski” she’r shakllari XX asr boshlari uchun xos emas, davr mazmunan yangilanar ekan, unga munosib yangi shakllar bilan ish ko‘rish lozim degan fikrdalar. Bu tortishuvlar nafaqat mumtoz va yangi janrlar borasida, balki aruz-hijo vazni munosabatlarida ham kechgan. Mehmet Akif ga ko‘ra, har ikki vaznda yuksak she’rlar yozilishi mumkin.

Asarning til va uslub xususiyatlarini tadqiq qilgan M.Uluchay shunday yozad: “She’r ma’no jihatidan qiymat ifoda etmaguncha, istar hijo, istar aruzda yozilsin u bo‘shdir. Vazn bir o‘lchovdir, she’rdan maqsad o‘lchov emas, balki ma’noni ohangdor qilib ifodalash”dir<sup>54</sup>.

Mehmet Akif she’rlarining vazn xususiyatlarini o‘rgangan Sazoyi Korako‘ch shunday yozadi: “Aruz, ayni zamonda, islom she’riyatining mushtarak vaznidir va butun islomiy she’rlarni ayni oqang qamrovida to‘playdi. Islomga ishonmoq va islom millatini uyg‘otmoq uchun aruz hokim bo‘lgan bir adabiyot ichida she’riyatini yaratgan shoir bu vaznni qo‘llashdan tabiiy bir narsa kutmagan... Faqat u aruzni turk tilining murakkab nuqtalariga qadar olib kirdi, eng tabiiy aruz shoiri

---

<sup>54</sup> *Uluçay M.* Mehmet Akif Ersoy’un eserleri üzerinde dil ve üslup incelemesi. Doktor Tezi. İstanbul, 2014. — S.93.

bo‘lib tanildi. Aruz mumtoz shoirlarimiz bilan birgalikda Mehmet Akif tufayli tilimizning o‘z moliga aylandi. U devon shoirlaridan farqli o‘laroq aruzni tilning alohida bir bo‘limiga aylantirib, realistik chizgilarni va kundalik hayot voqealarini so‘ng darajada buyuklik bilan uyg‘unlikda bog‘lay oldi... Akif aruzning Me‘mor Sinonidir”<sup>55</sup>.

G‘azal mumtoz adabiyotda eng ko‘p qo‘llanilgan she‘riy janrlardan biri bo‘lsa-da, “Safihat” tarkibida g‘azallar u qadar ko‘p emas. Lekin mumtoz g‘azaldan farqli o‘laroq, ayrim g‘azallarining maqta’ qismi mumtoz janr talablariga bo‘ysunmaydi. U alohida bir vazn va alohida bir qofiya tizimiga ega. Masalan, “Safihat”ning muqaddimasida kelgan she‘r janr nuqtai nazaridan *g‘azal* shaklida, vazn va qofiyasi ham g‘azal talablariga javob beradi:

*Bana sor sevgili kaari’, sana ben söyliyeyim,*

v v - - | v v - - | v v - - | v v -

Fai lo tun fai lo tun fai lo tun failun

*Ne hüviyyette şu karşında duran es’ârım: (S.3)*

v v - - | v v - - | v v - - | v ~

Fai lo tun fai lo tun fai lo tun failun

Tarjimasi:

*Ey, sevikli kitobxon, so‘ra, aytay izhorim,*

*Qanday asosga ega qarshingdagi ash‘orim (B. 20)*

Ushbu qolip g‘azal oxiriga qadar saqlangan bo‘lib, aruzning Ramali musammani maxbuni mahzuf vaznida yozilganini anglatib turibdi. Biroq so‘nggi bayt, ya’ni g‘azal maqta’si shunday tugallanadi:

*Oku, şâyed sana bir hisli yürek lâzımsa;*

v v - - | v v - - | v v - - | - v

<sup>55</sup> *Sazai Karakoç*. Mehmet Akif. İstanbul, 1968. — S.43-44.

*Oku, zira onu yazdım, iki söz yazdımsa (S.3)*

v v - - | v v - - | v v - - | - v

Fai lo tun fai lo tun fa i lo tun fa'lu

Tarjimasi:

*O'qi, shoyad senga bir hisli yurak kor bo'lsa,*

*O'qi, zeroki yozdim, ikki so'zim bor bo'lsa. (B. 20)*

Bu yerda Ramal bahrining vazn ko'rsatkichlari, asosan, saqlangan. Biroq so'nggi rukn faul (v -) emas, balki fa'lu (- v). Shuning uchun ham uni Ramali musammani maxbuni asram deb belgilash mumkin. Ko'rinadiki, g'azalda Ramal bahrining qoliplari o'z aksini topgan. Biroq so'ngi ruknni faul (v -) emas, fa'lu (-) bo'lgani holda mahfuzni asramga aylanishining sababi bor. G'azal oxirgi baytga qadar *aa, ba, da...* tarzida *es'ârim / söyliyeyim...* kabi qofiyalanib keladi-da, so'nggi baytda vazn saqlangani holda qofiya matda'dagi kabi *aa* ga o'tadi: *yazdımsa / lazımsa*.

Demak, Mehmet Akif mumtoz g'azalning vazn va qofiya jihatlarini saqlash barobarida so'nggi baytda mazmun talabi bilan qofiyani o'zgartiradi. Sababi so'nggi bayt mazmunan, o'quvchiga qarata, xitob alomatini bildiradi. Shoirning novatorligi shundaki, u she'rni ko'r-ko'rona vazn qolipiga tushirmaydi, an'anaviy qofiyani oxiriga qadar saqlamasligining boisi vazn ham, qofiya ham she'rning mazmuniga bo'ysunadi.

Mehmet Akif she'rlarining vazn xususiyatlarini o'rgangan turk olimlari Mehmet Jamal Kuntay, Mustafa Uluchay va boshqalar bu kabi mazmun – vazn - qofiya jihatlaridagi ichki uyg'unlikni chuqur o'rganmaganlari holda "Safohat" tarkibidagi she'rlarning vazn qoliplarini quyidagicha (basit qoliplar) belgilaganlar:

1. Mefâîlün, mefâîlün, mefâîlün, mefâîlün.
2. Feilâtün, feilâtün, feilâtün, feilün.
3. Fâilâtün, fâilâtün, fâilâtün, fâilün.
4. Faûlün, faûlün, faûlün, faûl.
5. Müfteilün, müfteilün, müfteilün, müfteilün.

## 6. Müfteilün, müfteilün, fâilün<sup>56</sup>.

“Safihat”ning 7-kitobida Mehmet Akif shunday she’r keltiradi.

*Bütün dünyaya küskündür, dün akşam pek bunalamıştım;*

v - - - | v - - - | v - - - | v - - -

*Nihâyet, bir zaman kırlarda gezmiş, köyde kalmıştım (S.473)*

v - - - | v - - - | v - - - | v - - -

Tarjimasi:

*Butun dunyoga g‘ashlandim, kecha shom g‘amga tolgandim,*

*Nihoyat, bir mahal qirlarda kezgan, ko‘yda qolgandim.(B.170)*

Vazn va qofiya jihatidan mushakkal bu she’rni birinchi bayt, ya’ni matla’ga ko‘ra, Hazaj bahrining musammani solim qolipida yozilganini anglash qiyin emas. Biroq she’rning qofiyalanishi g‘azal tizimida emas, balki masnaviy shaklidir: *bunalamıştım / kalmıştım; kararmışti / sarmışti...* kabi. Arab she’riyatida ham, ajam (fors, turkiy) she’riyatda ham bu kabi yangilanishlar uchramaydi. Mehmet Akif Erso‘y esa g‘azalning vazn qoliplarini saqlagan holda masnaviyning qofiya tizimini bu janrga kiritgandir. She’rlarni ayni mana shu jihatdan o‘rganish orqali shoir mahoratining yangi qirralarini aniqlash mumkin. Biroq Mehmet Akif she’rlarining vazn xususiyatlarini o‘rgangan ishlar yuqoridagi basit (engil) vaznlardan tashhari, quyidagi xafif (og‘ir, murakkab qoliplar) vaznlarini qayd etish bilan cheklanadilar:

1. *Mef’ülü, Mefâilü, Mefâilü, Faülün*

2. *Mefâilün, Feilâtün, Mefâilün, Faülün*

3. *Mef’ülü, Mefâilün, Faülün*

4. *Feilâtün, Mefâilün, Feilün*

5. *Müfteilün, Fâilün, Müfteilün, Fâilün*<sup>57</sup>.

<sup>56</sup> Uluçay M. Mehmet Akif Ersoy’un eserleri üzerinde dil ve üslup incelemesi / Doktor Tezi. İstanbul, 2014. — S.95.

<sup>57</sup> Yuqoridagi manba qarang. S.97.

Birgina gʻazal janrining vazn va qofiya xususiyatlari bilan borliq bir qator oʻziga xosliklar koʻringani kabi “Safohat”da eng koʻp uchragan sheʼr shakli *masnaviy* ekanini qayd etish lozim. Chunki masnaviy janr eʼtibori bilan voqeaband sheʼrlar, epik yoʻnalishdagi asarlar uchun mos keladi. Bejiz emaski, Firdavsiyning “Shohnoma”si, Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig” asaridan tortib Navoiy “Xamsa”siga kirgan dostonlarning aksariyati mana shu sheʼr shaklida yozilgan. “Safohat”da ham 108 ta sheʼrdan 63 tasi masnaviydir. Odatda mumtoz masnaviylar mutagʻorib vaznida yozitlan boʻlib, ularning qolipi *fauvlun, fauwlun, fauwlun, faul* (mutaqoribi musammani mahzuf)dir. Oʻzbek sheʼriyatida bu vazn qolipida “Qutadgʻu bilig”, “Hibat ul-haqoyiq”, “Saddi Iskandariy” kabi dostonlar bitilgan. Mehmet Akifning ilk davridagi sheʼrlarida mana shu mumtoz masnaviy vazni saqlangan. 1908-yildan keyin, ayniqsa, “Safohat”da barkamollik davriga qadam qoʻygan shoir asosan, *mefâîlün mefâîlün faûlün, mefʻûlü mefâîlün faûlün, fâîlâtün fâîlâtün fâîlün ve feilâtün feilâtün feilün* vazn qoliplarida masnaviylar bitgan <sup>58</sup>.

*Muxammas*. Maʼlumki, muxammas arab va ajam sheʼriyatida mustaqil janr sanalmay, balki *musammat* (arabcha ipga tizilgan marvarid demakdir) shakllaridan biridir. Musammatlarning har bandidagi misralar soniga harab, musallas, murabbaʼ, muxammas, musaddas, musabba, musamman va muashshar kabi turlari mumtoz sheʼriyatda farqlanadi. “Safohat”da musammat shakllaridan eng koʻp qoʻllanilgani muxammasdir. “Safohat”ning 3-kitobi “Haqning saslari” boʻlimida “Iloho!..” deb boshlanuvchi sheʼr muxammas shaklida yozilgan:

*Îlahî, emrinin avâre bir mahkûmudur âlem;*

*Meşîyyet Sende, her şey Sende... Hiçbir şey değil âdem!*

*Fakat, hâlâ vücûd isbat eder, kendince, hey sersem!*

*Bügün, üç beş karşı toprakta varlıktan vururken dem;*

*Yarın, toprak kesilmiş varlığından firkırır mâtem! (S.192)*

---

<sup>58</sup> Uluçay M. Mehmet Akif Ereoy’un eserleri üzerinde dil ve üslup incelemesi / Doktor Tezi. İstanbul, 2014. — S.99.

Tarjimasi:

*Iloho, amringning ovvora bir mahkumidir olam,  
Tilak senda, har shay senda... hech bir narsa emas odam!  
Faqat, hamon vujud isbot etar, o 'zincha, hey sarsam!  
Bugun, uch-besh qarish tuproqda borliqdan urarkan dam,  
Erta, tuproq ketsa qo`ldan, buzib dunyo, tutar motam! (B. 163)*

Muxammasning qofiya tizimi: *aaaaa, bbbba, dddda...* tarzida davom etgan.

*Qit'a* (arabcha: parcha, bo'lak) janri odatda g'azal yoki qasidaning bir bo'lagi tarzida keladi. Shuning uchun ayrim mutaxassislar uni "matla'siz va maqta'siz" g'azal deb ham aytadilar. "Safohat"da 19 qit'a mavjud. "Safohat"dagi "Yemişçi İhtiyar", "Bir Mezar taşına Yazılmış idi", "Bu da bir Mezar Taşı için", "Hüsrân-ı Mübîn", "Gül-Bülbül", "Bir Resmin Arkasına", "İtiraf", "Pek Hazin bir Mevlid Geces" va boshqalar mana shu janrga oid she'rlardir. Qit'alar odatda *ba da ea* tarzida qofiyalanadi. Ayrim qit'alarining qofiyalanish jihati *bb* bo'lib, ular g'azalning emas, balki masnaviyning bo'lagi tarzida ham qofiyalangan.

"Safohat"dagi she'rlarning janr, vazn va qofiya tomonlarini o'rganganda ularning ayrimlari mumtoz she'riy shakllarda emas, balki barmoq vaznida yozilgan she'rlar ekani ma'lum bo'ladi. Bunday she'rlarning mutaxassislar "muxtaliif shakllar" deb atashgan<sup>59</sup>.

### **3.2. Asarda qo'llanilgan badiiy san'atlar ko'lami**

Badiiy san'atlar mumtoz she'riyatning eng asosiy xususiyatlaridan sanalib, uni ilmi badoe' tarzida mustaqil fan sifatida (Shayx Ahmad Taroziy<sup>60</sup>, Atoullloh Husayniy<sup>61</sup>) yoki "Balog'at" ilmlari tarkibida *ma'no, bayon va badoe'* (Ibn

---

<sup>59</sup> *Uluçay M.* Mehmet Akif Ereoy'un eserleri üzerinde dil ve üslup incelemesi / Doktor Tezi. İstanbul, 2014. — S.119.

<sup>60</sup> *Shayx Ahmad Taroziy.* Fununu-l-balog'a / Nashrga tayyorlovchi A.Hayitmetov. T.: Fan, 1998. — 242 b.

<sup>61</sup> *Atoullloh Husayniy.* Badoyi'u-s-sanoyi' / Fors tilidan A.Rustamov tarjimasi. T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981. — 452 b.

Mu'tazz) tarzida o'rganish rasm bo'lgan. "Safohat"dagi she'rlarda yuzdan ortiq badiiy san'atlar qo'llanilganining guvohi bo'lamiz. Ularning eng faollariga misollar berib o'tamiz.

*Jinos (tajnis)* shakli (lafzi) bir xil, ma'nosi turlicha bo'lgan omonim so'zlar asosiga quriladigan badiiy san'atdir. Bu haqda lug'atlarda shunday deyilgan: "Tajnis (jinos) – she'r baytida ma'no jihatidan har xil, ammo shakli bir xil yoki shaklan bir-biriga yaqin ikki so'zni keltirib, ular visitasida muayyan fikr, lavha yoki timsolni ta'sirchan ifodalash san'ati"dir. "Safohat"da ko'proq "yaz" ("yoz") so'zi jinos bo'lib, birinchi ma'nosi "sıcak mevsim" (yil fasli) bo'lsa, ikkinchi ma'nosi "yazmak" (yozmoq) fe'l shaklidir. Shunday omonim so'zlar boshqa bir she'rida "kapanız" bo'lib, ulardan biri "kapatırız" boshqasi "gasp ederiz" ma'nosida kelgan. Ayni jinos uchragan "İstibdad" ("Istibdod") she'ri:

*Asıl Ahmed'im, kasıl Ahmed'im!*

*Bu geçid belâ, asıl Ahmed'im!*

*O ne batmalar, ne boğulmalar!*

Tarjimasi:

*Asl Ahmadim, kasil Ahmadim!*

*Bu o'tkinchi balo asl Ahmadim!*

*U qanday botishlik, qanday bog'lishlik*

Birinchi misradagi "asil" so'zi *asılmak (osilmoq)* fe'lidan majoziy ma'noda qo'llanilgan, uning *ısrar etmek (oyoq tirab turib olmoq)*, *ileri gitmek (olg'a yurmoq)* kabi ma'nolari bor; ikkinchi misrada esa, *kök (ildiz, tomir)*, *esas (asosiy, tub, asos)*, *temel (tamal, asos, negiz)*, *gerçek (haqiqat, chin)* ma'nolarida keladi.

*Hüsn-i talil.* Bu san'atni shunday tushuntiradilar: "Ifodaga latiflik, go'zallik baxsh etmoq maqsadida bir o'z ma'nosida kelgan so'zga ikkinchi qo'shimcha ma'no bilan vazifalantirish san'atidir. Lekin bu ikki ma'no orasida aloqa saqlanishi shart". U haqda mumtoz poetikaga oid lug'atlarda shunday deyilgan: "Husni ta'lil

fikrni asoslash san'atidir. Ammo bu asoslash real , hayotiy bo'lmasdan faqat shoirona asoslash bo'ladi".<sup>62</sup>

Ushbu san'at haqida "So'z san'ati so'zligi" kitobida shunday yozilgan: "Shoir o'zining birorta fikri yohud maqsadini asoslash uchun munosib dalil keltiradi. Bu dalil shoir bayon qilgan fikr uchun ishonchli sabab bo'lolmaydi, balki uni quvvatlash maqsadida keltirilgan poetik dalil hisoblanadi va bu sabab shoirning muddaosi bilan to'g'ridan-to'g'ri emas, balki tashbihiy yoki istioraviy yo'sinda bag'ishlanib, uning fikrini quvvatlaydi"<sup>63</sup>.

*Nadir bilmem Ziyâ bu şîve-i i'câz nazmunda*

*Meğer Rûhu'l- kuds endîşene imdâda gelmiştir.*

Tarjimasi:

*Nadir bilmam ziyo bu sheva'i e'joz nazminda,*

*Magar ruhu-l-quds fikr uchun yordamga kelmishdir.*

baytida ko'rsatilgan sabab "meğer" so'zining "herhalde, galiba" (har holda, tasidifan) ma'nolarda kelishidir. Mehmet Akif "Merhum İbrahim Bey" manzumasida ham shu san'atni qo'llagan.

*Akis* (tardi aks) san'atida bir jumladan yoki bir misraning oldidan boshqa bir unga qarshi ma'nodagi jumla yoki misra keltiriladi. "Tardi aks ham so'z takroriga bag'ishlangan san'atlardan hisoblanadi. Shuning uchun ham "tard"ning ma'nosi qaytarib berish, ko'chirish, uzoqlashtirish demakdir. Tardi aks yoki aks san'atlarida so'zlarning birinchi joylashish tartibi keyingisiga almashib keladi. Unda takrorlanayotgan so'zlarning miqdori ikki yoki undan ortiq bo'lib, ular o'rinlarini almashtirgan holda qo'llangan bo'lishlari shart". Bu haqda yana shunday ma'lumot bor: "Bu san'atning shakily ko'rinishlari (komil va maxraj) bilan uning ma'naviy xususiyatlari (mutahodiy va mujriy) bir-birini istisno etmaydi, aksincha ular qo'shilib ketgan holda namoyon bo'ladi. Yani bir

---

<sup>62</sup> <https://saviya.uz>

<sup>63</sup> Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. Т.: O'zbekiston, 2014. — Б. 300.

shakldagi (komil yoki mahraj) tardi aks, shoirning niyati toqozosi bilan, yangi ma'no yaratish uchun ham, oddiy takror-stilistik maqsadda ham ishlatilishi mumkin”<sup>64</sup>.

*Kibârın kelâmi / kelâmın kibârıdır.*

Dastlabki misradagi soʻzlarning ikkinchi misrada oʻrni almashinishi bilan ma'no ham oʻzgaradi va yangi bir sanʼat yasaladi. *Kiborlar kalomi* (ulugʻlar soʻzi) *kalomning kiboridir* (soʻzning ulugʻidir). Soʻz va iboralarning oʻrni almashinishi bilan oʻzbek tilidagi “Otalar soʻzi – aqlning koʻzi” maqoliga zqin maʼnodagi hikmatli soʻz yasalmogda.

*Iqtibos* (Iktibas) – arabcha ziyo olmoq. Maʼnoni kuchaytirish va aytilayotgan fikrni tasdiqlash uchun Qurʼoni karim yoki hadisi shariflardan iqtibos (koʻchirma)lar olib, sheʼr ichiga kiritiladi. Bu gapda Y.Ishoqov yozadi: “Iqtibos ikki xil koʻrinishda boʻlishi mumkin: 1. Oyat yoki hadis aynan keltirilgan iqtibos “darj” deyiladi. Navoyining nasri va nazmida oyat va hadislar nihoyatda katta sanʼatkorlik bilan qoʻllangan. Ular ifoda, bayon uchun oddiy bezak, ziynat emas, balki fikrni quvvatlab, kuchaytirishga xizmat qiluvchi muhim vosita hisoblanadi. Hatto ayrim sheʼriy va nasriy parchalar mohiyatan muayyan oyat yoki hadisning mazmuni bilan aloqador boʻlishi ham mumkin... 2. Agar oyat va hadisning tarjimai yoki mazmuni keltirilsa, bunday iqtibos “hall” usuli deyiladi”<sup>65</sup>.

Masalan, iqtibosning har ikki turini asarda uchratish mumkin:

“Safahot”ning uchunchi kitobi boʻlgan “Haqning saslari”da Qurʼoni karimdan shunday iqtibos keltirilgan:

*“Yâ Muhammed, de ki : Ey mülküm sahibi olan Allahım, Sen mülkü  
dilediğine verirsın; Sen mülküm dilediğinin elinde alırsın;*

---

<sup>64</sup> Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. Т.: Оʻzbekiston, 2014. — Б. 216.

<sup>65</sup> Кўрсатилган асар Исҳоқов Ё. — Б. 57-58.

*Sen dilediğini aziz edersin; Sen dilediğini zelil edersin; hayır yalnız  
Senin elindedir; Sen, hiç şüphe yok ki, her şeye kaadersin.” (S. 140.)*

Tarjimasi:

*Ayt: “Ey Ollohim, mulk egasi sensan, istagan kishingga mulkingdan  
berasan, istagan kishingdan mulkingni olasan, istagan kishingni  
yuksaltirasan, istaganingni tubanlashtirasan. Bor yahshiliklar senda,  
albatta, sen barcha narsaga qodirsan” (B. 163.) 3-sura, 26-oyat.*

*Bî-bekâdır bu menzil ey ahbâb  
Fe't-tekullâhe yâ uli'l-elbâb*

Arabcha iboraning turkchasi:

*Ey dostlar, bu konak yeri kalıcı değildir.  
“O halde ey akıl sahipleri, Allah'tan sakının”*

Tarjimasi:

*Ey do'stlar, bu mehmon zamin manguilik emas,  
“Ey aql sohiblari, Allohga sig'ining”.*

*Irsoli masal* (Îrsâl-i mesel, Îrâd-ı Mesel): She'r tarkibida maqol yoki hikmatli so'zlarni keltirish *irsolu masal* deyiladi. “Irsolu masal shundayki, shoir gapda tamsil qilishga loyiq mashhur bir maqolni keititadi. U maqol aynan keltirilmasdan vazn va qofiya talabi bilan biro z o'zgargan bo'lishi mumkin”. Bu san'at turi “Safihat”da eng ko'p qo'llanilgan san'atlardan biridir.

*“Şecâat arz ederken merd-i kiptî sirkatin söyler”*

Tarjimasi:

*“Shijoat arz etarkan mard kishi o'z jasotarini so'zlaydi.*

(Kötü karakterli insanlar, dedikodu arasında kabahatlerini söylerler:

Çingene yiğitliğini anlatırken hırsızlığını söyler.)

O‘zbek tilidagi “Kampirning dardi g‘oza (atr-upa)da”, “Ma‘rakaga kelgan xotin o‘z dardini aytib yig‘laydi” kabi maqollarga yaqin ma‘noni beradi.

*Istiora (İstiâre)* – zamonaviy filologiyada *metafora* deb yuritiladi. Istioraning lug‘aviy ma‘nosi nasiyaga olish, omonatga qo‘ymoq bo‘lib, tashbeh (o‘xshatish) san‘atiga yaqin tursa-da, undan o‘xshatish belgilarining yo‘qligi bilan farqlanadi. Istioraga shunday ta‘rif beriladi: “Istiora (metafora) – asarlarda so‘zni o‘z ma‘nosidan boshqa bir ma‘noda, ya‘ni majoziy ma‘noda qo‘llash san‘ati. Bu san‘at so‘z ma‘nolari ko‘chishining bir turi bo‘lib, u narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanadi. Shu jihatdan istiora tashbih san‘atiga yaqin turadi. U ko‘pincha tashbihi kinoyaga teng keladi. Adabiyotda istiora tashbihdan kuchli savaladi”<sup>66</sup>.

Masalan, shoir ko‘p o‘rinlarga millat botirlariga nisbatan (Âsım, S. 323) “*Aslanım!*” (arslonim) so‘zini qo‘llaydiki, *bu arslon kabi kuchli botir yoki bahodir ma‘nosini beradi.*

*Istifhom (İstifhâm - Suâl)* – zamonaviy filologiyada ritorik savol bo‘lib, bu san‘atda shunday savol qo‘yiladiki, bu ritorik savolga javob berish shart emas, uning kinoyaviy javobi savolning ichida anglashilib turiladi:

*Köleni etmem ol zelile kıyas Mütesâvî olur mu tâc ü midâs?*

*Kara taş mı, giranbahâ zer mi, Hind’in oğlu Hüseyın’e benzer mi?*

(“Muallim Naci” she‘ridan)

Tarjimasi:

*Uning ko‘lamini nimaga qiyos etish mumkin: bu tosh Mutasiviyimi?*

*Qora toshmi, baholi zarmi, qoraligi Husayn Hiniyga o‘zsharmi?*

---

<sup>66</sup> <https://uz.m.wikipedia.org>

*Ishtiyoq (İştikâk)* san'ati - bir o'zakdan yasalgan so'zlarni bir o'rinda qo'llash orqali ma'noni kuchaytirishdan iborat.

“Ishtiyoq” so'zining badiiy termin bo'lishiga uning grammatik ma'nosi asos bo'lgan. So'z yasalishi ishtiyoq deyiladi. Shunga asosan gapda bir o'zakdan yasalgan so'zlarni keltirishni “ishtiyoq” deb ataganlar. Biz bu hodisani o'zakdoshlik va uni vujudga keltirishni o'zakdoshlashtirish deb atasak ham bo'ladi. Lekin ishtiyoq so'zni yodimizdan chiqarmasak yaxshiroq bo'ladi. Demak, Navoiy mazkur baytda so'zlarni ham tovushlashtirgan, ham o'zakdoshlashtirgan. Bu baytda “ranj”, “ganj”, “jahon” so'zlari e'tibori bilan tovushdoshlik, “ganja”, “ganj” va “ganjur” so'zlari e'tibori bilan o'zakdoshlik bor. Chunki bularning hammasi xazina ma'nosidagi “ganj” o'zak so'zidan yasalgan. “Ganjur”ning ma'nosi “ganj” egasidir. Bunda Ganjaviyning Ganjada haqiqiy ganj ekanligi va uning jahon ahamiyatiga ega bo'lgan besh ganjni qoldirganligining haqiqatligi tovushdoshlik va o'zakdoshlik bilan ta'kidlangan.<sup>67</sup>

#### *A'dâd edemez silsile-i feyzini ta'dâd*

Mazmuni: Bu fayzli silsilaning *adadi* (miqdori) *ta'dod* (sanoq) bilan o'lchanmaydi. Bu misrada *a'dâd* va “*ta'dâd*” so'zlari shunday san'at hosil qilgan.

Shuningdek, “ishtiyoq uch guruh so'zlar – arabcha, forsiy va turkiy so'zlar vositasida yaratilgan. Shubhasiz, ishtiyoq hosil qilish uchun jalb qilingan har bir so'z o'zi mansub bo'lgan tilning ichki qonuniyatlari doirasida ishlatiladi. Shu jihatdan har uchala tilga mansub so'zlarning ishtiyoq san'atini hosil qilish jarayonidagi xususiyatlari va inkoniyatlari ham bir-biridan tafovut qiladi. Jumladan, forsiy va turkiy so'zlarda o'zakka turli qo'shimchalar qo'shish yo'li bilan yangi ma'no yohud ma'no qatlamlari hosil qilish imkoniyati bo'lsa, arabcha so'zlarda ichki so'z yasalish asosiy o'rin tutadi”<sup>68</sup>.

---

<sup>67</sup> Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. Т., 2014. — Б. 91.

<sup>68</sup> Исҳоқов Ё. Кўрсатилган асар. — Б. 52-53.

*Kinoya (Kinâye)*: bir fikrni o‘z ma’nosidan tashqari, kesatib, yoki boshqa bir narsaga ishora sifatida qo‘llanilish orqali bu san’at hosil qilinadi. Masalan, “Taş bağırlı dağlar” (“Tosh bag‘irli tog‘lar”) so‘zlari orqali hissiz, qalbi ko‘r kishilar she’rga tortiladi.

“Kinoya (bir fikrni yashirin ma’noda ifoda etmoq) – “bayon ilmida uni ham haqiqat, ham majoz ma’nosi anglashiladigan so‘z san’ati deb izohlanadi. U inkorning bir ko‘rinishi bo‘lib, tasvir obyekti ustidan kesatish, qochiriq yo‘li bilan yashirin kulish, piching qilishdan iboratdir.

“Safohat”da

*Ey yolcu, uyan! Yoksa çikarsın ki sabaha:*

*Bir kupkuru çöl var; ne ışık var, ne de vaha!* (S. 335)

Tarjimasi:

*Ey yo‘lchi, uyg‘on, yoqsa bu tongda chiqarsin:*

*Bir qup-quruq cho‘l bor; na ishq bor, na havolanish.*

Bu o‘rinda “sabah” so‘zi o‘z ma’nosidagi “tong”ni emas, balki istiqbol, kelajak ma’nolarini berish uchun she’rga kiritilgan.

*Mubolag‘a (Mübâlağa)* san’ati eng faol san’atlardan hisoblanadi. “narsa yoki hodisaga xos xususiyatni oshirib, mahovatli qilib tasvirlash. Mubolog‘a obrazni bo‘rttirish va shu yo‘l bilan asarning ta’sir kuchini oshirishga xizmat qiladi. Mubolag‘a mohiyat e’tibori bilan uchga bo‘linadi: 1. Tablig‘ – aqlga va odatga biroz muvofiq kelgan mubolag‘a. 2. Ig‘roq – tasavvurda mumkin, ammo amalda mumkin bo‘lmagan mubolag‘a. 3. G‘uluv – tasavvur qilish ham qiyin, bo‘lishi mutlaq mumkin bo‘lmagan mubolag‘a.<sup>69</sup>

Ko‘pincha, “Safohat”da “habbeyi kubbe, kubbeyi habbe yapmak” (“yuksak minora”, “baland minora qutish”) iborasi keladi. Bu mubolag‘a orqali shoir balandliklarni orzu qilishni nazarda tutadi. Chunki bir inson, yuksak qubba

---

<sup>69</sup> Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. Т.: O‘zbekiston, 2014. — Б. 94-96.

(minora) yasay olmaydi, ayniqsa, she'rda. Shuning uchun bu o'rinda mubolag'a san'ati faol ishlatilganini ko'ramiz.

### 3-bob yuzasidan qisqacha xulosalar

1. “Safohat” asarining badiiy xususiyatlarini o‘rganish orqali uning tarkibidagi janrlar tizimi, vazn va qofiya jihatlari o‘zaro bog‘liq ekanin ko‘rdik. Shuning uchun asar tarkiban g‘azal, qit‘a, muxammas va masnaviy kabi janrlardan iborat bo‘lsa, ma’lumki, har bir janrning o‘z vazn va qofiya jihatlari alohida qaraladi.

2. “Safohat”da eng ko‘p qo‘llanilgan janrlar g‘azal, muxammas, qit‘a, masnaviy kabi she‘r shakllaridan Iborat bo‘lib, ular mumtoz adabiyotda eng ko‘p qo‘llanilgan she‘riy janrlar bo‘lsa-da, “Safohat” tarkibidagi 108 ta she‘rning hammasida mumtoz janrlar tabiati to‘liq saqlanmagan. Mumtoz g‘azaldan farqli o‘laroq, ayrim g‘azallarining maqta’ qismi mumtoz janr talablariga bo‘ysunmaydi. U alohida bir vazn va alohida bir qofiya tizimiga ega.

3. Ma’lumki, muxammas arab va ajam she‘riyatida mustaqil janr sanalmay, balki *musammat* (arabcha ipga tizilgan marvarid demakdir) shakllaridan biridir. Musammatlarning har bandidagi misralar soniga qarab, musallas (uchlik), murabba’ (to‘rtlik), muxammas (beshlik), musaddas (oltilik), musabba’ (yettilik), musamman (sakkizlik) va muashshar (o‘nlik) kabi turlari mumtoz she‘riyatda farqlanadi. Bu se‘riy shakllardan “Safohat”da muxammas asosiy o‘rinni egallaydi. Shoirning muxammas janrini qo‘llashdagi mahorati shundaki, u voqeaband she‘rlar sifatida bu janrga yondoshgan.

4. *Qit‘a* (arabcha: parcha, bo‘lak) janri odatda g‘azal yoki qasidaning bir bo‘lagi tarzida keladi. Shuning uchun ayrim mutaxassislar uni “matla’siz va maqta’siz” g‘azal deb ham aytadilar. “Safohat”da 19 qit‘a mavjud bo‘lib, ular qo‘llanilish o‘rniga ko‘ra, poetic kechinma va his-tuyg‘ularni to‘g‘ridan to‘g‘ri ifodalash lozim bo‘lganda murojaat etilgan janrdir. “Safohat”ning deyarli hamma nashrlariga asar tarkibida bo‘lmagan, lekin mazmunan unga hamohang bo‘lgan qit‘alar “Nazm parchalari” sarlavhasi bilan ilova qilingan.

5. “Safohat” tarkibidagi she‘rlar aruz va barmoq (turkcha: hijo) vaznlarida yozilgan. Aruz vaznining Hazaj, Ramal, Rajaz kabi bahrlari shoir asarida eng ko‘p

ishlatilgan bahrlar sanaladi. Biroq shoir xuddi mumtoz janrlardagi kabi vaznlarni ishlatganda ham ularga ijodiy yondoshgan va vazn xususiyatlarini kengaytirgan. Bu hol XX asr boshlarida ijod qilgan Fitrat, Cho‘lpon kabi o‘zbek shoirlarining ijodiga xos xususiyatdir.

6. Aruzning vazn qoliplaridan quyidagilar ko‘proq ishlatilgan: *mefâilün, feilâtün, feilün, fâilâtün, fâilün, faûlün, faûl, müfteilün, müfteilün, fâilün* kabilar. Arab va fors tillaridagi she’rlarda qo‘llanilgan bu ruknlar Mehmet Akif she’rlariga shunchaki kirib kelmagan, balki shoir ularni turk tilining xususiyatlariga moslab qo‘llash orqali o‘z mahoratini ko‘rsatgan.

7. “Safobat” asarida mahoray bilan qo‘llanilgan yuzdan ortiq badiiy san’atlar mavjud. Ulardan *hüsni talil, tarzi aks, iqtibos, irsou masal, istiora, istifhom, ishtiyoq, kinoya, mubolag‘a* kabi san’atlar faol iste’modda bo‘lgan badiiy san’atlar hisoblanib, ularning har biriga dissertatsiyada kerakli misollar berilgan.

## XULOSA

XX asr boshlarida jahon adabiyotida kechgan yangilanish harakatlari bevosita Turkiya adabiyotiga ham dahldor. Turk adiblari Ziya Gokalp, Halida Adib Adivar, Rashod Nuri Guntekin, Tavfiq Fikrat va boshqalar Usmonli turk adabiyotini tubdan yangilashga erishdilar. Bular orasida turkiy Mehmet Akif ijodi alohida o‘rin tutadi. Mehmet Akif siyosiy arbob sifatida “Ittihad va taraqqiy” (“Birlik va taraqqiyot”), “Ganch usmonlilar” (“Yosh usmonlilar”) kabi jamiyatlarning faol ishtirokchisi bo‘ldi. Buning natijasida kuchli islohotchi darajasiga ko‘tarildi. Turkiya jumhoriyatining vujudga kelishida uning “Istiqlol marshi” she‘ri madhiya vazifasini bajarib, xalqlarni yagona jumhuriyat g‘oyasi asosiga birlashtirdi. Mehmet Erso‘y adabiyot tarixida shoir, adib, publicist va mutafakkir sifatida e‘tibor qozongan bo‘lishiga qaramay, “Safohat” asari nafaqat turk, balki ununturkiy adabiyotda muhim ahamiyatga ega. Tarkiban murakkab bo‘lgan bu asar turli janrlarni o‘z ichiga olishi bilan turk adabiyotida yangi sahifa ochdi va epopeyaning yangi shakli sifatida adabiyot tarixida qoldi. Keyinroq boshqa turkiy xalqlarda ham bu asarga ergashib, asarlar yozdilar. Ulug‘ shoir Nozim Hikmatning “Inson manzaralari” epopeyasi buning amaliy isbotidir.

Mehmet Akif Erso‘yning “Safohat” asari poetikasini o‘rganishdan avval adabiyotshunoslikdagi “poetika” atamasining kelib chiqishi, qo‘llanilishi va bugungi adabiyotdagi ma‘nolarini sharhlab o‘tish lozim. Bu so‘zini ilmiy muomalaga kiritgan olim Arastu Hakim bo‘lib, “Poetika” (“She‘riy san‘at”) asarida ushbu tushuncha “badiiylik ilmi” sifatida ilk bor sharhlab berilgan. Ushbu qarash ko‘p asrlar davomida badiiy asarlarni o‘rganish mezoni bo‘lib hisoblangan.

XIX asrning oxiri XX asr boshlarida G‘arbiy Yevropa, xususan, rus adabiyotshunosligida poetikaning mohiyatini chuqurroq anglatishga, uning vazifalarini belgilashga haratilgan ta‘limotga vujudga keldi. A.N.Veselovskiy “Tarixiy poetika”, A.A.Potebnya “nazariy poetika” masalalarini ishlab chiqqan.

Ularining ishlarini nazariy umumlashtirgan V.M.Jirmunskiy “poetikaning vazifasi”ni badiiy asarni tashkil etuvchi elementlarning o‘zaro aloqadorligi orqali ko‘rsatgan va badiiy uslubni shakllantiruvchi asos sifatida e‘tirof etgan.

Hozirgi kunda rus va o‘zbek tillarida chop etilgan adabiyotshunoslik lug‘atlarida, asosan, uning umumiy xususiyatlarini ko‘rsatish bilan birga, poetikaning umumiy va xususiy jihatlari (S.P.Belokurova) hamda tor va keng ma‘noda tushunish (D.Quronov) mavjudligini ko‘rsatib, poetika bevosita badiiy asarning shakli va uni hosil qiluvchi komponentlar, ularning badiiy matndagi o‘rni kabi tushuntirishlar mavjud. Sharq mumtoz adabiyotshunosligida “poetika” istilohi qo‘llanilmagan bo‘lsa ham, uni “ilmi adab” (filologik ilmlar) tarkibida ko‘rish, xususan, she‘r ilmiga oid aruz va qofiya masalalari hamda balog‘at (ilmi ma‘ni, ilmi bayon va ilmi sanoe‘) fanlari bilan bog‘lab tushunish poetika masalalariga Sharq adabiyotshunosligida e‘tibor kuchli bo‘lganini ko‘rsatadi. Sharq mumtoz poetikasiga xos xususiyatlarni o‘rganish hozirgi kun adabiyotshunosligining ham dolzarb masalalaridan hisoblanib, uning yordamida XX asr boshlarida bitilgan turkiy adabiyot namunalari tashkil qilish, jumladan, “Safihat” asarining badiiy xususiyatlarini tadqiq qilishga yo‘l topilishi mumkin.

Mehmet Akif Erso‘y poetika masalalariga doir yozilgan maqolalarida Arastu hakim g‘oyalariga tayangan bo‘lsa ham, amalda u muhtasham Sharq she‘riyatidagi ma‘rifat, axloq va mahorat uchligini o‘z asarlari uchun asos o‘laroq qabul qildi. “Safihat” asarida sharqona she‘riyat motivlarini ham, g‘arbcha tasvir usullarini ham sintez qilgan holda XX asr boshlari epopeyasini (7 kitobdan iborat) yaratdi. “Safihat” asari poetikasini o‘rganish uchun ushbu asar tarkiban G‘arb adabiyotidagi “sinkretik epopeya” shaklida yaratilganini e‘tirof etish lozim bo‘ladi, chunki uning tarkibida Sharq she‘riyatiga xos janrlar, jumladan, g‘azal, qit‘a, masnaviy kabi poetik shakllar ham uchraydi. Asarda XX asr boshlaridagi hayot tasvirlanar ekan, maktablarning qarovsizligi, muayyan bir boshqarma tomonidan boshqarilmagani, davlat nazoratiga olinmay, unda o‘qituvchining istagiga ko‘ra bilim berilishi kabi holatlarni va maorifga tegishli

voqealarni ko'rsatish bilan ko'z oldimizda bundan yuz yil avvalgi hayotni gavdalantirib bera oladi.

“Hurriyatning zavqin ular anglashlaru kerak ko'proq” degan she'riy xulosasida “Safohat” asarining bosh g'oyasi ochiq ko'rindi. Undan maqsad xalqda hurriyat, erklik istagini uyg'otish, buning uchun ommani ma'rifatli qilish va uning asosida esa mamlakatni yangi taraqqiyot yo'liga boshlashdir.

XX asr boshlaridagi ma'naviy hayotni maktab va maorifsiz tasavvur qilib bo'lmaganiday, ayni zamonda ma'rifatning boshqa sohalari, jumladan, e'tiqod va diniy masalalar, ma'rifatning san'at asariga munosabati kabi muammolar ham borki, ularni asar orqali o'rganmay turib, “Safohat”ning g'oyasi va asar muammosini to'la tasavvur etib bo'lmaydi. Asarning bosh g'oyasi – ma'rifat. Mana shu g'oyadan kelib chiqib, muallif o'z asarining shaklini belgilagan, murakkab nazm parchalaridan iborat bu asarda ma'rifat har misrada ulug'langanini ko'ramiz. Agar “Safohat” asarini sujet va kompozisiya masalalari jihatini o'rgangadigan bo'lsak, dastlabki sahifalardanoq asar bir umumiy voqeaga yoki o'zaro tutashgan voqealarga ega emasligini kuzatish mumkin. Bu degani asarda sujet yo'qligi emas, balki uning o'ziga xos murakkab tarzda kechishidir. Asar 1918 yildan 1933 yilga qadar kechgan voqealarni o'z ichiga olsa-da, uning yetti qismi mana shunday davriy tartibda nashr etilgan bo'lsa ham buni xronikal sujet asosida yozilgan deb bo'lmaydi. Adib kuzatgan voqealar, kishilar va taqdirlar “Safohat” asarining sujet yo'nalishida ham, kompozisiyasida ham muhim o'rin tutadi. “Safohat” asari tarkibida 7 kitob, 108 ta she'r, yuzlab bizga notanish qahramonlar, turli xil janr va poetik vositalar yagona maqsad – ma'rifatning tantanasi uchun birlashtirilganini ko'rish mumkin. Agar bu she'rlarning janr xususiyatlariga nazar tashlaganda ham mumtoz (devon) she'riyatidagi qasida, g'azal, qit'a, ruboiy janrlari o'z vaznlarida (ya'ni aruz vaznida) berilgani, undan tashhari, asarning asosiy bayon yo'li esa, masnaviy janri talablari asosida yozilganini qayd etamiz. Masnaviy janrida har bir baytdagi oxirgi so'zlar o'zaro qofiyalanishi natijasida keng epik

bayonga imkon yaratilganini ham kuzatamiz. Mehmet Akif asarida yagona qoliplovchi hikoya uchramasa-da, muallif qoliblovchilik rolini asarning g'oyasiga "topshiradi", uning mohiyatidan kelib chiqib asardagi MA'RIFAT tushunchasini mana shunday qoliplovchi g'oya sifatida talqin qilish mumkin.

"Safohat" asarining badiiy xususiyatlarini o'rganish orqali uning tarkibida muxammas va musammat shakllari ham faol ishlatilganini kuzatdik. Musammatlarning murabba' (to'rtlik), muxammas (beshlik), musaddas (oltilik), musamman (sakkizlik) kabi turlari "Safohat"da asosiy o'rinni egallaydi. Shoirning muxammas janrini qo'llashdagi mahorati shundaki, u voqeaband she'rlar sifatida bu janrga yondoshganidadir. "Safohat"da 19 qit'a mavjud bo'lib, ular qo'llanilish o'rniga ko'ra, poetik kechinma va his-tuyg'ularni to'g'ridan to'g'ri ifodalash lozim bo'lganda murojaat etilgandir. "Safohat"ning deyarli hamma nashrlariga asar tarkibida bo'lmagan, lekin mazmunan unga hamohang bo'lgan qit'alar "Nazm parchalari" sarlavhasi bilan ham ilova qilingan.

"Safohat" tarkibidagi she'rlar aruz va barmoq (turkcha: hiyo) vaznlarida yozilgan. Aruz vaznining hazaj, ramal, rajaz kabi bahrlari shoir asarida eng ko'p ishlatilgan bahrlar sanaladi. Biroq shoir xuddi mumtoz janrlardagi kabi vaznlarni ishlatganda ham ularga ijodiy yondoshgan va vazn xususiyatlarini kengaytirgan. Bu hol XX asr boshlarida ijod qilgan Fitrat, Cho'lpon kabi o'zbek shoirlarining ijodiga xos xususiyatdir. Arab va fors tillaridagi she'rlarda qo'llanilgan ruknlar Mehmet Akif she'rlariga shunchaki kirib kelmagan, balki shoir ularni turk tilining xususiyatlariga moslab qo'llash orqali o'z mahoratini ko'rsatgan.

"Safohat" asarida mahoray bilan qo'llanilgan yuzdan ortiq badiiy san'atlar mavjud. Ulardan *hüsn-i talil*, *tarzi aks*, *iqtibos*, *irsou masal*, *istiora*, *istifhom*, *ishtiyoq*, *kinoya*, *mubolag'a* kabi san'atlar faol iste'molda bo'lgan badiiy san'atlar hisoblanib, ularning har biriga kerakli misollar berilgan.

Demak, Mehmet Akif Erso'yning "Safohat" asari o'z davri adabiyoti uchun ham, keyingi davrlarda yozilgan va yozilayotgan asarlarga ham o'z

ta'sirini o'tkazgan. Bu asar bugungi kunda Turkiya mamlakatidagina emas, barcha turkey xalqlar tomonidan ham izchil o'rganilmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2016. – 56 б.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Т.: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 б.

### II. Ilmiy adabiyotlar

#### O‘zbek tilida

3. Арасту Ҳақим. Поэтика. Ахлоқи кабир. Рус тилидан М.Маҳмуд тарж. Т.: Ўзбекистон, 2008. – 120 б.
4. Atoullloh Husayniy. Badoyi’u-s-sanoyi’ / Fors tilidan A.Rustamov tarjiması. Т.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981. – 452 б.
5. A’zam M. Mehmet Akif Ersoyning o‘zbek jadid yozuvchisi Fitratga ta’siri to’g‘risida / Sahifalar. Turkchadan Miraziz A’zam tarjiması. Toshkant: Alisher Navoyi nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2016. – 174 б.
6. Алимбеков А. Тарихнинг тиниқ тасвири. // Туркология масалалари. Илмий мақолалар тўплами, А.Навой номли Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, Т.,: 2006. – № 1 Б.38 – 40
7. Алимбеков А. XX аср турк насри тараққиёти (маърузалар матни). Т., 2001. – 40 б.
8. Болтабоев Ҳ. Фитратнинг Истанбул даврини тавсифловчи манбалар // Фитрат ва жадиличлик. Т.: Алишер Навой номидagi Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. 210 б.
9. Ҳомидий Ҳ., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати. Т.: Ўқитувчи, 1970. – 300 б.

10. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. –Т.: Ўқитувчи, 1993. – 120 б.
11. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. T.: Akademnashr, 2010. – 318 b.
12. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 308 b.
13. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. Т., 1993. – 120 б.
14. Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. Т., 2008. 162 б.
15. Yusuf Berdak, turkcha – o‘zbekcha, o‘zbekcha – turkcha lug‘at. Toshkent: Tafakkur, 2012. 415 b.
16. Shayx Ahmad Taroziy. Fununu-l-balog‘a / Nashrga tayyorlovchi A.Nayitmetov. T.: Fan, 1998. – 242 b.
17. Шарқ мумтоз поэтикаси. Матн ва талқинлар. Тузувчи Ҳ.Болтабоев. Т., 2006.

### **Rus tilida**

18. Белокурова С.П. Словарь литературоведческих терминов. Санкт-Петербург: Паритет, 2006. – 320 с.
19. Гарбузова В.С. Поэты турции первой половны ХХ в., Л., 1975. –187с.
20. Томашевский Б. Стилистика и стихосложение. Курс лекций. Л., 1959. 348 с.
21. Теория литературы. В двух томах. Под редакцией Н.Д.Тамарченко. М.,2004. Т.1, 296 с., Т. 2. 324 с.
22. Фиш.Р.Г Писатели турции- книги и судьбы. М.,1963. – 324 с.
23. Жирмунский В. М. Задачи поэтики / Теория литературы. Поэтика. Стилистика. Л., 1977. – 418 с.
24. Литературный энциклопедический словарь / Под редакцией В.Кожевникова и М.Алексеева. М.: Художественная литература, 1987. – 1120 с.

## Türk dilida

25. Amanođlu E. Mehmet Âkif 'in Milli Mücadele Dönemindeki Edebi Faaliyetleri Üzerine Bir inceleme / Mehmet Âkif Ersoy Sempozyumu Bildiriler Kitabı. Mehmet Âkif Ersoy Üniversitesi, 2008.
26. Abdürreşid İbrahim. 20. Asrın başlarında İslam Dünyası ve Japonya'da İslamiyet. Cild. 1, İstanbul: 1987. S.386.
27. Avcı Yusuf. Fıtrat ve eserleri. Ankara, 1997. – 208 s.
28. Daşciođlu Y. Tevfik Fikret ve Mehmet Âkif'in şiir görüşleri arasında bir karşılaştırma. [www.Mehmetakifersoy.com](http://www.Mehmetakifersoy.com)
29. Komatsu H. yüzyıl başlarında Orta Asyada türkçülük ve Devrim hareketleri. Ankara: Turhan Kitabevi Yayınları, 1993. – S. 36.
30. Kabaklı Ahmet. Türk Edebiyatı 5.cilt. İstanbul, 2004. – 432 s.
31. Emin Aman ođlu. M. Âkifnin Milli Mücadele dönemlerindeki edebiyat faaliyetleri üzerine Bir inceleme. M. Âkif Ersoy Sempozyumu Bildiri özetleri. M. Âkif Üniversitesi, 2008. – S.181-186.
32. Edebiyat terimleri sözlüğü. Türk edebiyatı - Dil ve anlatım dersleri için Kaynak site. S.23. / [www.edebiyatogretmeni.org](http://www.edebiyatogretmeni.org)
33. Edebiyat terimleri sözlüğü. Türk edebiyatı - Dil ve anlatım dersleri için Kaynak site. S. 23. / [www.edebiyatogretmeni.org](http://www.edebiyatogretmeni.org)
34. Fevziye Abdullah Tansel. Mehmet Âkif . Hayatı ve Eserleri. İstanbul: İrfanYayınları,1973. – 291s.
35. İslom Ansiklopedisi. 1. cild. Ankara, 1984.
36. Mihat Cemal Kuntay. M. Âkif hayatı, sacıyesi, sanatı. İstanbul: Tımaş yayın evı, 2009. – 469 s.
37. Mehmet Kaplan Şiir tahlilleri 2.cild. İstanbul 1992. – 624 s.
38. Muallim Naci. Edebiyat terimleri / İstilahat-i Edebiyye. Prof. Dr. M.A. Yekta Sarac. 2. Baskı. İstanbul: Bilimevi Basım Yayın Ltd. Sti, 2004.
39. Ođur E. Asım'da Eğitimi Deđerle. Mehmet Âkif Ersoy Sempozyumu Bildiriler Kitabı. Mehmet Âkif Ersoy Üniversitesi, 2008. s.170 –175
40. Süleyman Nazıf. Mehmet Âkif. İstanbul: İz Yayın evı, 1991. – 336 s.

41. Sebilü-r-reşad, 30 Ağustos 1328/30 Ramazan 1330, c. 9-12, S. 210.
42. Sebilü-r-reşad, 24 Şubat 1327/19 Rebiülevvel 1330, c.8-10, S.183.
43. Sırat-ı Müstakim, 17 Eylül 1325/15 Ramazan 1327, c. 3, S. 54-55
44. Sabit Ayasbeyoğlu. Mehmet Akifin Safahat ta bulunmayan Bir Şiir Üzerine. İslam Medeniyeti mecmuası, 1968. 15 Nisan, № 1 no.9. – 19–23 s.
45. Tahkikat-ı Edebiye Sütunları // Servet-i Fünûn, c. 54, No: 1429, s. 360, 2 Teşrin-i evvel 1335/2 Ekim 1919.
46. Türk dünyası edebiyat kavramları ve terimleri ansiklopedik sözlüğü. 5-cilt. Atatük Kültür Merkezi Başkanlığı Yayınları. Ankara, 2006. – 405 s.
47. Uluçay M. Mehmet Akif Ereoy'un eserleri üzerinde dil ve üslup incelemesi. Doktor Tezi. İstanbul, 2014. – 93 s.
48. Yetiş K. Mehmet Akif'in Sanat-Edebiyat ve Fikir Dünyasından Çizgiler, Ankara 1992. – 218 s.
49. Yeni Türk edebiyatı. El kitabı (1839-2000). Editör Dr. Ramazan Korkmaz. Ankara, 2006.

### **III. Manbalar:**

#### **O'zbek tilida**

50. Алишер Навоий. Хамса: Ҳайрат ул-аброп / Мукаммал асарлар бўплами. 7-жилд. Т.: Фан, 1998.
51. Беҳбудий М. Танланган асарлар. 1-2-жилд. Т.: Akademnashr, 2018.1.j, 506. 2. j. 308.
52. Фитрат. Ҳиндистонда бир фаранги ила бухороли мударриснинг жадид мактаблари хусусинда қилган Мунозараси / Фитрат. Танланган асарлар. 1-жилд. Т.: Маънавият, 2000. – 46-98 б.
53. Фитрат. Бухоро вазири Насруллоҳбей афанди ҳазратларина очик мактуб. / Асарлар. 3-жилд. Т.: Маънавият, 2003. – 226-228 б.
54. Форобий А. Фозил одамлар шаҳри. Т., 1993. – 228 б.
55. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. Т.: O'zbekiston, 2014. – 320 б.

56. Жомий А. Силсилату-л-захаб / Шарқ мумтоз поэтикаси. Матн ва талқинлар. Тузувчи Ҳ.Болтабоев. Т., 2006. – 112 б.

57. Mehmet Akif Ersoy. Sahifalar. Turkchadan Miraziz Azam tarjiması. Toshkent: Alisher Navoyi nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashiryoti, 2012. – 160 b.

58. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. Т., 1993. – 128 б.

### **Turk tilida**

59. Mehmet Âkif Külliyyatı. Makaleler / Hazirlayan İsmail Hakkı Şengüler. İstanbul, 1990. c. 5, s. 1-307.

60. Ersoy Mehmet Âkif . Safahat, İstanbul: İnkılap Kitabevi, 1987. – 600 s.

61. Ersoy Mehmet Âkif . Safahat. Ankara, Akçağ Yayınevi, 2008. – 544 s.

62. Ersoy Mehmet Âkif. Fikri ve Sanat Vakfı // [www.Mehmetakifersoy.com](http://www.Mehmetakifersoy.com)

63. Ersoy Mehmet Âkif . Safahat. Ankara, Mehmet Âkif Ersoy Üniversitesi Yayını, 2013. – 560 s.

64. Mehmet Âkif Ersoy'un Aile Mektupları. Mehmet Âkif Ersoy Üniversitesi Yayınları, 2010. – 132 s.

65. Mehmet Âkif. Edebiyat Bahisleri: Plan-2 // Sebilürreşad, 19 Temmuz 1328 / 18 Şaban 1330, c. 8-1, S. 204, s. 416-417.

66. Mehmet Âkif. Berlin Hatıraları” / Safahat, Haz. Orhan Okay-Mustafa İsen, Ankara 1992, – 280-281s.

### **IV. Internet saytlari:**

67. <https://uz.m.wikipedia.org> <https://saviya.uz>

68. Edebiyat terminleri sözlüğü. [www.baybut.com](http://www.baybut.com)

69. Edebiyat terminleri sözlüğü. Turk edebiyati - Dil ve anlatım dersleri için Kaynak site. S. 23. / [www.edebiyatogretmeni.org](http://www.edebiyatogretmeni.org) [www.edebiyatogretmeni.org](http://www.edebiyatogretmeni.org)

70. <https://uz.m.wikipedia.org> <https://saviya.uz> Edebiyat terminleri sözlüğü. [www.baybut.com](http://www.baybut.com)

